**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI**

# “Umum ta’lim maktablari 1-4 – sinflarida mehnat ta’limini o’qitishning interfaol usullari” mavzusidagi

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajardi:** “Boshlang’ich sinf va sport tarbiyaviy ish” ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi 4 kurs talabasi **Radjabova Rushona**_______________

ILMIY RAHBAR:
**p.f.d.prof. Olimov.Q.**_________________

**Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o’tdi.**
**_____________sonli bayonnomasi “____” ____________ ______2013 yil**

**TERMIZ – 2013**

# Reja


Kirish.

I BOB. Boshlang’ch ta’limda interfaol usullarni qo’llashning ilmiy-amaliy asosi.

I.1. Interfaol usullar haqida tushuncha.

I.2. Boshlang’ich sinflar mehnat ta’limi darslarida interfaol usullarni qo’llash imkoniyatlari.

II BOB. Mehnat ta’limi darslarida interfaol metodlarni qo’llash shakllari.

II.1. Mehnat ta’limi jarayonida interfaol usullardan foydalanish shakllari.

II.2 To’garaklarda interfaol usullardan foydalanish.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston ta'lim va tarbiyaning bosh maqsadi va mazmuni tubdan yangilandi. Yosh avlodni yangicha ruhda tarbiyalash,yangicha fikrlashga o‘rgatish “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi” kabi muhim xujjatlarda o‘z aksini topdi. Bu esa o‘qituvchidan darslarni o‘ziga xos tashkil etishni, kundalik darslarga ijodiy yondashishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, maktabda ijodiy muhitni yaratish orqaligina ta'limning sifat va samaradorligini oshirish mumkin.

Ta'lim mazmuni va sifatiga katta e'tibor qaratilgan bugungi kunda har bir pedagog o‘z ish faoliyatini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etmog‘i kerak. Bilim berish bilan birga, ularda bilimga bo‘lgan qiziqishini, mehnat qilishga ehtiyojini tarbiyalab borish ko‘zda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining maqsadi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘quv-biluv jarayoniga tayyorgarlik imkoniyatlarini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash uning murakkabligini aniqlash avvalgi o‘rganilgan mustaqil ishlarning ketma-ketligini bilishi, darsda kerak bo‘ladigan jixozlarni tanlash hamda qo‘shimcha axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini o‘rgatishdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shuni doimo esda tutishi kerakki, dars o‘quv tarbiya jarayonining asosiy formasi bo‘lib, hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o‘quvchilarni erkin fikrlashga, mustaqil faoliyat yuritish va ijod qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

Umumta'lim maktablari o‘quvchilari aqliy salohiyatining o‘sib borishi, ularning ta'lim mazmuniga chuqurroq kirib borishga intilishi, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dunyo yangiliklaridan boxabar bo‘lishga qiziqishlari o‘qituvchilardan o‘z ustilarida tinimsiz izlanishlari, bugungi kun nafasi bilan yashashlari hamda ta'lim sohasidagi eng so‘ngi yangiliklardan xabardor bo‘lib borishni talab etadi.

Zamonaviy o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini tazlim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlar ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishi va albatta ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta'lim umuta'lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sabali, ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsini mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e'tibor berish lozim. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma'suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan bolalarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. O‘qituvchilarning asl maqsadi, o‘quvchilarning o‘quv istagi va shaxsidagi ijodkorlikni shakllantirib, ularni barcha darslarda faol bo‘lishlariga jalb qilish, ta'limga bo‘lgan qiziqish va mustaqillik tuyg‘usini uyg‘otishdir. Boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi ta'lim jarayonida o‘quvchilarni faollikka undovchi yangi o‘qish metodalarini o‘ylab topishga, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich ta'lim tizimiga tadbiq etish yo‘llarini izlashga harakat qiladi.

Jamiyat rivjlanishinig har bir davrida bo‘lganidek mehnat va mehnat ta'limiga munosabat bugungi shiddatkor davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Boshlang‘ich ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni olib kirishda mehnat ta'limini o‘qitishda keng ko‘lamda foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Mehnat ta'limi darslari mazmuni o‘quvchining qo‘l harakat tizimlarini mukammal shakllantirish, ijodiy fikrlash, amaliy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy san'at na'munalari bilan tanishtirish, kasb-hunarga qiziqish uyg‘otish asosiy vazifa sifatida qaralayotganligi sir emas.

Mana shunday vazifalarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi turli xil interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagi jarayonlarni inobatga olib biz o‘z bitiruv ishimizning mavzusini **“Umum ta’lim maktablari 1-4 – sinflarida mehnat ta’limini o’qitishning interfaol usullari”** “boshlang‘ich sinflar misolida” deb nomladik.

**Bitiruv malakaviy ishmizning maqsadi:** 1-4 sinf mehnat ta'limi darslarida interfaol usullardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganib, ushbu jarayonni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdash iborat.

**Malakaviy ishimizning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni bajarishni maqsadga muvofiq deb belgiladik.**

1. 1-4 sinf mehnat ta'limi darslarini mavzu nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish;
2. Mehnat ta'limi darslarida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatini aniqlash.
3. 1-4 sinf mehnat ta'limi darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol usullardan faoliyat jarayonida qo‘llab ko‘rib uning samaradorligini aniqlash;
4. Boshlanhich sinf o‘quvchilariningi nterfaol usullardan foydalanish tajribalarini aniqlash rivojlantirish.

Biz yoritayotgan mavzuga yaqin bo‘lgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Boshlang‘ich ta'lim samaradorligini oshirish bo‘yicha B.Adizov, R.Mavlonova, K.Qosmova, T.G‘afforova, M.Jumaev, E.Jumaev, K.Turg‘unboev kabi qator olimlar tomonidan tadqiqot ishlari boshlang‘ich sinflarning turli xil o‘quv fanlari misolida yoritilgan.

Bakalavriyatning boshlang‘ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo‘nalishi talabalari uchun bitiruv malakaviy ish sifatida ilk bor ishlanayotganligi bitiruv **malakaviy ishning yangiligini belgilaydi.**

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati** shundaki, 1-4 sinf mehnat ta'limi darslarida interfaol usullardan “Kasblari alifbosi”, “Mohirlar maktabi”,

“Hamkorlarmiz” kabi bir necha turdagi interfaol usullarni ta'lim jarayoniga tadbiq etib, uning samaradorligini amaliy jarayonda aniqlaydi.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti:** 1-4 sinf mehnat ta'limi jarayonlari va to‘garak mashg‘ulotlaridan iborat bo‘ldi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti:**1-4 sinf mehnat ta'limi darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol usullar ularni amalga oshirish metodikasi vositalari.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini** O`zbekiston respublikasining “Ta'lim to`g`risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va ma'ruzalarida har tomonlama etuk, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlash sifati va mazmunini takomillashtirishga doir fikrlari hamda yondashuvlari, O`zbekiston respublikasi Hukumati, Oliy va o`rta maxsus, Xalq ta'limi vazirliklarining ta'limni sifat va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy Hujjatlari, 2012 yil 17 fevralda o`tkazilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Halqaro konferentsiya materiallari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik manbalar.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi:** ish kirish, 2 bob, 4 bo`lim, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami ( 60 ) sahifani tashkil qiladi.

# I-BOB. BOSHLANG’CH TA’LIMDA INTERFAOL USULLARNI QO’LLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSI.

## I.1. Interfaol usullar haqida tushuncha.

*O‘qish-o‘rganish uchun hech qachon ham*
*keksayib qolganman dema*

***G. Gersen.***

Keyingi paytlarda jamiyatimizda har bir inson uning boshlang‘ich bilim darajasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar istalgan sohadan bilim olishga haqli deb topildi va uning kelajakda davlat muassasalarida yaxshi mansab egallashi maqsadida ta’lim muassasalariga jalb qilish odat bo‘lib qoldi. O‘quv muassasalariga faqatgina bir necha fandan testlar topshirgan holda kirishni tashkil qilish ham o‘quvchilarning dunyoqarashi va bilimlarini chegaralangan hamda bir tomonlama bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki maktab, litsey va kollejlarda ko‘pgina fanlar chetga surilib, ularda faqatgina test topshiriladigan fanlar bo‘yicha chu-qur ta’lim berilishi, test javoblarini ularning mohiyatiga yetmasdan yodda saqlashga harakat qilinishi bitiruvchilar bilimining sayoz va bir tomonlama bo‘lishiga olib kelmoqda. Agar kirish imtihonlari barcha fanlar bo‘yicha integral usulda tashkil qilinsa, ya’ni, bir qism fanlardan test orqali, boshqalaridan og‘zaki savol-javoblar vositasida, yana bosh-qalaridan yozma usulda qabul qilinib, ularning natijasi umumlashtirilsa, chuqur bilimli va fikrlash doirasi keng bo‘lgan abituriyentlargina o‘quv muassasasiga kirishar edi va yuqoridagi salbiy holatlar yuz bermas edi, albatta. Bu mamlakat kelajagi bilan uzviy bog‘liq strategik masala bo‘lgani uchun ham uni ta’kidlamasdan boshqa ilojimiz yo‘q. Bundan tashqari, ta’lim berish jarayonida asosiy diqqat-e’tibor ta’lim muassasalarida qanday fanlardan dars berish, qanday ta’lim standartlariga rioya qilish va qanday kitoblardan foydalanishga qaratildi, xolos. Bunda, ming afsuski, ta’lim berishning asosiy omili va yurituvchi kuchi bo‘lgan bir nima yoddan chiqarildi – bu eng asosiy omil esa shakshubhasiz – O‘QITUVCHIDIR! Bu borada hozirgi zamonga

mos bo‘lgan quyidagi fikr o‘rinlidir, desak ham bo‘laveradi: «*Har qanday fan bo‘yicha malakali o‘qituvchini osongina tayyorlash mumkin va u o‘quv jarayoni mexanizmining bir detali sifatida istalgancha dasturlanishi va yo‘naltirilishi mumkin*?!» Bu tezis o‘z-o‘zidan o‘qituvchining jamiyatdagi mavqeyini juda ham pasaytirib, o‘quvchilarning unga bo‘lgan hurmat va e’tiborga sezilarli darajada putur yetkazadi. Natija ham darhol ayon bo‘ladi – malakali o‘qituvchi bo‘lishga intilish yo‘qolib, bu sohada yetuk mutaxassis bo‘lishga layoqatlilar soni keskin kamayadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim berish sifatini ancha pasaytiradi. Lekin bu tezis hozirgi jadal sur’atda rivojlanayotgan hayotga aslo mos kelmaydi va uni jadal rivojlanish davriga mos quyidagi tezis bilan almashtirish maqsadga muvofiq: «*Malakali o‘qituvchini tayyorlash juda murakkab va qimmat turadigan faoliyat turi bo‘lib, u o‘quv jarayonining ijodiy, yaratuvchi va yurituvchi kuchidir. Har bir o‘qituvchini juda ham qimmatli insoniy zaxira sifatida hisoblab, uning jamiyatdagi mavqeyini imkon darajasida ko‘tarish mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga aynan mos keladi*».

Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatib kelingan edi. Bunday usul o`quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so`ndirar edi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol uslublar (innovasion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta`limning samaradorligini ko`tarishga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo`llanilgan mashg`ulotlar o`quvchilar egallayotgan bilimlarni o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O`qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o`quv jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog-olimlarning yillar davomida ta`lim tizimida

*Nega o`qitamiz?*

*Nimani o`qitamiz?*

*Qanday o`qitamiz?*

savollariga javob izlash bir qatorda

*Qanday qilib samarali va natijali o`qitish mumkin? –*degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o`quv jarayonini texnologiyalashtirishga, yani o`qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga o’rinib ko`rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug`ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo`nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e`tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchidan,* pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish masalasiga alohida e`tibor qaratilgan.

*Ikkinchidan,* pedagogik texnologiyalar o`quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchidan,* pedagogik texnologiya o`qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo`lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To`rtinchidan*, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo`llashga asoslanganligi sababli, ularning qo`llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi.

O`quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqilllikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o`quv-tarbiya jarayonida qo`llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o`quvchini kim o`qitayotganligi va o`qituvchi kimni o`qitayotganiga bog`liq.

Pedagogik texnologiya asosida o`tkazilgan mashg`ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o`z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o`z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovasion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o`zlashtirish va o`zlashtirgan bilimlarini o`zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish uslublari interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, tajriba o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Innovasiya (inglizcha-“ innovation”) yangilik kiritish, yangilik demakldir.

Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoluyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter” – bu o`zaro. “act” – harakat qilmoq) – o`zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo`lishni anglatadi. Boshqacha so`z bilan aytganda, o`qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo`lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo`ladilar, ular biladigan va o`ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo`ladilar. Interfaol darslarda o`qituvchining o`rni qisman o`quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo`naltirishga olib keladi.

# INTERFAOL METODLAR XUSUSIYATLARI

**MUAMMOLILIK**

O'qituvchi vazifasi – talabani muammoli vaziyatga olib kirish Talabaning vazifasi – bu muammoli vaziyatning echimini mustaqil topish. Ammo talaba muammodan chiqish uchun etarli bilimga ega emas.

Shu bois talaba - o'qituvchi va boshqa talabalar ko'magi orqali kerakli bo'lgan bilimlarni shakllantiradi.

Bunda talaba mustaqil ravishda o'z mantiqi, tafakkuri, bilimlarini ishlatishga majbur bo'ladi.

Eng kuchli muammolilik – o'qituvchi uchun ham echimi noaniq bo'lgan muammoga javob topish vazifasini tanlashdir.

**O'QUV FAOLIYaTI ADEKVATLIGI**

Talabaning ta'limi uning hayotiy ehtiyojlariga nistaban adekvat, ya'ni mos bo'lishi.

Oliy ta'limda ham hayotiy ehtiyojlar bo'yicha keng bilimlar berish zarur, masalan, gender ta'lim, nizolar va fuqarolik ta'limi.

Kasb ta'limida adekvatlik o'z qo'li bilan ushlab ko'rish, sinab ko'rish imkonini beradi hamda talabaning shaxsiy emotsional aloqadorligi vujudga keltiriladi.

**HAMKORLIK**

Faol usullarning eng muhim ko'rsatkichi - jamoaviy faoliyat hamda bahs-munozara, suhbat uslubida o'qish hisoblanadi.

Bu usul ta'limning individualligidan voz kechmaydi, balki individualizatsiyaning namoyon bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Kollektiv faoliyat asosida o'qish talabalarning tez va keng bilim egallashi uchun xizmat qilishi tajribalarda isbotlangan.

# INTERFAOL METODLAR XUSUSIYATLARI

**INDIVIDUALI-ZATSIYA**

Talaba shaxsining individual xususiyatlari va qobiliyati nuqtai nazaridan ta'lim olish jarayoni tashkil qilinadi. Shu bilan birga talabaning o'zida o'z-o'zini nazorat qilish, o'z imkoniyatlarini ko'rsata bilish, mustaqil ta'lim olish shakllantirila-di.

**TADQIQ QILIShGA O'RGATISh**

Mazkur talabning bajarilishi talabada umrbod kerak bo'ladigan birlamchi ko'nikma va malakalarning shakllanishiga olib keladi hamda talabani tahlil qilish, umumlashtirish xulosa qilish, o'z bilim va malakalarini zarur xollarda ishlatishga o'rgatadi.

**O'QUV AXBOROTI BILAN SAMIMIYLIK, MUSTAQILLIK, HAMKORLIK ASOSIGA QURILGAN MUNOSABAT**

An'anaviy ta'limda o'qituvchi olinayotgan axborotga nisbatan "filtr" rolini bajaradi. Noan'anaviy metodlarda o'qituvchi ham o'rganayotganlar qatoridan o'rin oladi va o'rganish jarayoniga ko'mak beruvchi sifatida ishlaydi, o'qituvchi talabalar mustaqil ta'lim jarayonini uyushtiruvchi hisoblanadi, shu bilan hamkorlikni vujudga keltiradi.

**MOTIVATSIYA**

Individual va jamoaviy faollik uchun motivatsiya bo'lishi kerak.

O'qituvchi motivatsiyasi uchun:

Professionalizm

Ijodiylik

Doimiy raqobatning mavjudligi

Darslarning o'yinga aloqadorligi

Emotsional qoniqish

O'qituvchining manfaatdorligi o'qituvchi faoliyati natijasida vujudga keladigan ijobiy emotsiyalar uni yanada kengroq va chuqurroq ish olib borishga undashi.

«Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrldar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shu ma'noda ta'lim sohasidagi yangiliklar va o‘zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotning omili sanalanadi.

Ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning intellektual faolligini oshirish bugungi kunda pedagogikaning bosh vazifasi hisoblanadi. Intellektual faollikni oshirishda interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Interfaol usullar esa (Interaktion – inglizcha – aro, o‘zaro, ast – harakat ma'nosini anglatadigan so‘zlardan

iborat) o‘zaro harakat yoki hamkorlik asosidagi harakatni bildiradi. Mazkur usulning bir qancha turlari mavjud. Bularga: «fikriy hujum» («fikr jangi»), «sinektika», «mojaro» metodi, «dumaloq stol», «uch bosqichli intervyu», «muammolarni hal qilish» metodlari, «stol o‘rtasidagi ruchka», «galereyani aylanish», «akademik munozara», «qor bo‘ron» metodlari, «asalari galasi», «kritik vazifani tahlil qilish» va boshqa usullar kiradi.

Quyida shulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz.

«Fikriy hujum» metodi

Metodikaning asosiy qoidalari:

– g‘oyalarni shakllantirishga xalal beradigan har qanday mulohaza va tanqidiy fikrlarni bajarmaslik;

– yangicha fikrni qo‘llash va fikr qanchalik odatdan tashqari bo‘lsa, uning shuncha yaxshi bo‘lishini hisobga olish;

– eng ko‘p sonli takliflar olish;

– g‘oyalarni rivojlantirish;

– har tomonlama dalil-isbotlar keltirmasdan turib, qisqa fikrlarni bayon qilish;

– guruhni g‘oya beradigan talabalar guruhi va ularni ishlab chiqadigan talabalar guruhiga bo‘lish. Metodikaning asosiy qoidalariga amal qilish vaziyati eng ma'qul yechimni topishga, muloqot olib borish, himoya qilinayotgvn metod talablarini o‘z nuqtai nazaridan isbotlash, himoya qilish, har qanday nuqtai nazarning to‘g‘riligiga

hammani ishontirishga o‘rgatadi. Masalan, pedagogika fanidan: «Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari» mavzusi o‘tilayotganda o‘qituvchi doska oldida turib, «Pedagogika fanlarida qanday tadqiqot manbalari

mavjud?» degan savolga variantlar berishni talabalarga taklif etadi. Talabalar ularni sanab o‘ta boshlaydilar:

1) o‘quvchilar faoliyati;

2) o‘quvchilar tarbiyasi;

3) o‘qituvchilar faoliyati;

4) maktabdagi o‘quv-tarbiyaviy ishlar;

5) ota-onalar faoliyati;

6) jamoatchilikning tarbiyaviy ishlar sohasidagi faoliyati;

7) bolalar va o‘smirlar uyushmalari faoliyati va h.k.

O‘qituvchi topshiriqni tahlil qilishda har bir talaba qatnashadigan bo‘lishini kuzatib boradi, bunda javoblarning birontasi ham izohlab o‘tilmaydi va o‘rinsiz deb rad etilmaydi. Guruhda variantlar qolmaganidan keyingina muhokamaga kirishish mumkin:

«Ta'lim-tarbiyadagi hodisa va dalillar uzoq vaqt, muntazam, ma'lum maqsadga qarata ixtiyoriy idrok qilinadimi? Qanday tadqiqot metodlaridan foydalanish mumkin?

Yana qanday manbalarni pedagogic manbalar deb atash mumkin? Hozirgi davr talabidan kelib chiqib, qanday sohalarni tadqiq etish zarur, deb o‘ylaysiz?» Talabalar o‘qituvchi bilan birgalikda barcha variantlarni faollik bilan muhokama qila boshlaydilar. Va bu o‘rinda noto‘g‘ri javoblarni tanqid qilishga va noto‘g‘ri bo‘lib chiqqan variant xususida tanqidiy munosabatni asoslashga ruxsat berilmaydi. Faqat mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi bilimlarni yanada mustahkamlash uchun to‘g‘ri variantlarni yozib olishni talabalarga taklif etadi.

Metodning maqsadi – guruhdan qisqa vaqt ichida ko‘p miqdor variantlarni olish, talabalar nimalarni bilishini aniqlash. Mashg‘ulot davomida muammoni hal eta oladigan g‘oyalar taklif etilishi, umumiy tajriba yuzasidan fikr almashish uchun zamin yaratilishi va talabalar o‘z istaklarini bildirishi mumkin. Bu jarayon mohiyati shundan iboratki, guruhga mavzu, savol yoki tugallanmagan taklif beriladi. Guruh a'zolari bir necha daqiqa davomida shu mavzu yuzasidan gaplashib, qanday fikr kelsa, shularning hammasini aytishadi va bularning hammasini tinglash, bo‘r bilan doskaga yoki daftarga yozib borish tavsiya etiladi.

Gaplarning hammasi, ular qanchalik noaniq, bema'ni yoki bahsli bo‘lmasin, yozib qo‘yilaveradi. Hamma o ‘z fikrini muhokama qilmasdan turib, bayon qiladi, chunki maqsad ko‘proq miqdorda va xilma-xil takliflar olishdir. Bu paytda hech qanday ta'qiqlar bo‘lmaydi va hech qanday baholar berilmaydi. Qatnashchilarda takliflarni tahlil qilish, norozilik bildirish va taklif etilgan hamma fikrlarni muhokama qilib chiqish uchun kengroq imkon bo‘ladi. Agar faollik sust bo‘lsa, o‘qituvchi o‘z fikrlaridan ba'zilarini yozib olishni taklif etishi mumkin. Metodning qiymati shundaki, u guruhni birlashtirib, yakdil qiladi. Har bir talabaga uning taklifi yozib olishga arzigulik ekanligini sezish uchun imkon beriladi. Bu narsa muammoni echishni musobaqaga aylantirmasdan, balki birgalikda bajariladigan ishga aylantirishga imkon tug‘diradiki, bunda guruhning boshqa bir a'zosi emas, muammoning o‘zi asosiy raqib bo‘lib qoladi. Shunisi muhimki, guruhning qiladigan xatti-harakatlari tartibini o‘qituvchi fikriy hujumning eng boshidayoq tushuntirib berishi kerak. Guruhni topshiriqdan chalg‘itishga yo‘l qo‘ymaslik ham muhim: fikr jangida ishtirok etishga o ‘rganib qolgan guruh ham

takliflarni muhokama qilishga vaqtidan ilgari kirishib ketishi mumkin. Berilgan takliflarni yozib borish uchun bir kishini ajratish o ‘rinlidir, bu narsa jarayonni quvvatlab borish va talabalarning fikrlash jarayoni sur'atlarini pasaytirmaslik uchun o‘qituvchiga yordam beradi. «Fikriy hujum» metodini tadbiq etish uchun tavsiyalar:

– u mavzuga mos keladigan bo‘lishi uchun uni o‘tkazishga yaxshi tayyorlanish;

– guruh oldida muhokama yuritish uchun mavzuni aniq ta'riflab berish lozim.

«Fikriy jang» odatda og‘zaki shaklda o‘tadi: o‘qituvchi savol beradi, talabalarning esa barchasi munozaraga tushmasdan, o‘z fikrlarini galma-gal bayon qilishadi. Bunda fikrlarning hammasini barchaga namoyish qilib ko‘rsatib qo‘yilmaguncha muhokama qilmasliknihoyatda muhim;

– jarayonning tartibi va maqsadinitalabalarga tushuntirib qo‘yish lozim;

– xoh o‘qituvchi bo‘lsin, xoh talababo‘lsin, ularning har qanday g‘oyaga salbiy baho berishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak;

– kimning g‘oyalari ro‘yxati ko‘proq bo‘lsa, o‘sha yaxshi hisoblanadi.

«Dumaloq stol» metodi

Topshiriq yozib qo‘yilgan qog‘oz varag‘i davra bo‘lab aylantiriladi. Har bir talaba o‘zining javob variantini yozib qo‘ygach, varaqni boshqa talabaga uzatadi. Keyin muhokama bo‘ladi: noto‘g‘ri javoblar o‘chiriladi, to‘g‘ri javoblarning soniga qarab talabaning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og‘zaki shaklda ham qo‘llash mumkin.

Berilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarga misollar:

– tarbiyaning tarkibiy qismlari qaysilar?;

– aqliy tarbiyaning hozirgi davr talabi nimada?;

– axloqiy tarbiya vazifalari qaysilar?;

– ekologik tarbiyaning mohiyati nimada?;

– mehnat va iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalarini izohlang;

– estetik tarbiyaning vazifalarini ayting;

– jismoniy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati;

– huquqiy tarbiyaning muhim belgilari qaysilar?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo‘yilgan savol, bu – javobning yarmisini o‘zida jo etgan savoldir.

«Ruchka stol o‘rtasida» metodi

Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, o‘quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir etuvchi, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillarini

birma-bir ko‘rsatib o‘tilsin). Har bir talaba bitta javob variantini bir varaq qog‘ozga yozib, uni qo‘shnisiga beradi, o‘z ruchkasini esa stolning o‘rtasiga surib qo‘yadi.

Topshiriqqa misol: O‘qituvchining guruhga beradigan topshirig‘i shaxs rivojlanishi va

shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni hayotiy misollar bilan sharhlab berish.

*Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko‘proq sonda javob variantlari berishi* kerak. Bir varaq qog‘ozga yozilgan topshiriq bir talabadan ikkinchisiga uzatiladi.

Talaba javobni yozib, qog‘ozni keying talabaga uzatadi, ruchkasini esa, o‘ziga ro‘baro‘ qilib, stolga qo‘yib qo‘yadi. Javobni bilmaydigan talaba qog‘ozni keyingi talabaga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo‘lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo‘lishiga bu o‘rinda yo‘l qo‘yilmaydi. Topshriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog‘oz o‘qituvchida. U o‘sha variantlarni sanab o‘tadi.

Variantlar sanab o‘tilar ekan, ularning biri muhokama qilib boriladi: Insondagi tug‘ma qobiliyatni qanday izohlaysiz? Bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit deganda

nimani tushunasiz? Va hokazo. «Ruchka stol o‘rtasida» metodi bir qancha afzalliklarga ega. Jumladan,

– o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi;

– mashg‘ulotga tayyorlanmagan talaba og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;

– bu guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, talabalar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o‘z variant ustida juda uzoq o‘ylab o‘tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi. Shuningdek, talaba mashg‘ulotga tayyor bo‘lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo‘ladi;

– talabalar o‘z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og‘zaki muhokama vaqtida tahlil qilib borishadi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida qo‘llaniladigan mazkur interfaol usullar o‘quvchi-talabalarning mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, xushmuomalaligi, ijodiy fazilatlarini kamol toptirishga yordam beradi.

Interfaol usullarni yana boshqaca ta’riflaydigan bo’lsak interfaol ta`lim jarayonida dars o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi.

Interfaol metod — ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati, ta`siri ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning

asosiy mezonlari — norasmiy bahs-munozaralar o`tkazish, o`quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o`qish, o`rganish, seminarlar o`tkazish, o`quvchilarni tashabbus ko`rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo`lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat.



Interfaollik, bu — o`zaro ikki kishi faolligi, ya`ni, bunda o`quv-biluv jarayoni o`zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o`qituvchi-o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida kechadi.

Interfaollik — o`zaro faollik, harakat, ta`sirchanlik, o`quvchi-o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi (sub`yekt-sub`yekt) suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o`q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro fikr almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi.

Interfaol ta`lim o`z xususiyatiga ko`ra didaktik o`yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o`z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta`lim o`z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o`qitish, masofadan o`qitish, internet tarmoqlari asosida o`qitish, media-ta`lim metodlaridan iborat.

Boshlang`ich ta`limda o`quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko`ra didaktik o`yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo`llanilmoqda. Agar o`qitish jarayonida har bir o`quvchi o`zining o`zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta`minlagan bo`lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirilgan ta`lim orqaligina amalga oshirish mumkin.

Didaktik o`yinli metodlar o`quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o`quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o`quvchini ichki imkoniyatlarini ishga

tushishiga, o`ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to`siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantiradi.

Ta`lim-tarbiya jarayonida asosan o`quvchilarda ta`lim olish motivlarini, ularni turli yo`nalishlardagi qobiliyat qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko`rsatadigan, didaktik o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchaniik va boshqa yo`nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o`quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o`lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o`stirish, til o`rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiy o`yinlar nazariyasiga ko`ra, mavjud barcha o`yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o`yinlarga ajratiladi. Didaktik o`yin turlarini tanlashda,quydagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

— ishtirokchilarning tarkibi bo`yicha, ya`ni o`g`il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o`yinlar;

— ishtirokchilarning soni bo`yicha: yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o`yinlar;

— o`yin jarayoni bo`yicha fikrlash, o`ylash, topag`onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo`naltirilgan;

— vaqt me`yori bo`yicha dars, mashg`ulot vaqtining reja bo`yicha ajratilgan qismi, o`yin maqsadiga erishguncha, g`oliblar aniqlanguncha davom etadigan o`yinlar.

Ayrim didaktik o`yinli dars shakllari:

— ishchaniik o`yini darsi mavzu bo`yicha masalalarni hal etish jarayonida o`quvchilarning faol ishtirok etishini ta`minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi;

— rolli o`yin darsi mavzu bo`yicha masalalarni o`rganishda o`quvchilarga oldindan ma`lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;

— boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo`lgan mavzular bo`yicha tashkil qilingan dars bo`lib, o`quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta`lim jarayonidagi faollikni ta`minlaydi. Bularning bari o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to`liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darslarni nechog`li qiziqarli, foydali va samarali tashkil etish o`qituvchilarning ijodkorligi, tashabbuskorligiga bog`liq. Xulosa qilib aytganda, o`qituvchi faqat o`qitibgina qolmay, o`quvchini mustaqil mutolaa qilish orqali ta`lim olish ko`nikmalarini shakllantirishi,o`quvchilarni darslik, qo`llanma, internet xabarlari, manbalarni tahlil qilish orqali bilim olishga o`rgatishi, o`quvchi ta`lim jarayonida eshitib, ko`ribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini o`rganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini ta`minlashi zarur. Agar o`qituvchi interfaol ta`lim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o`qib-o`rganib, o`zlashtirib, o`z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat ta`lim standartlarini va modernizatsiya qilingan o`quv dasturlarini to`la o`zlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishni ta`minlaydi.

Demakki, har bir o`qituvchi o`z o`quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolalarning o`qish, o`zlashtirish, bilim, ko`nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko`rsatkichlarni tashkil etadi.

## I.2. Boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida interfaol usullarni qo'llash imkoniyatlari.

1-4 sinflardan mehnat ta'limi darslarini taxminiy rejalashtirish

O‘zbekiston Respublikasining «Ta'lim to‘g‘risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumta'lim maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlarning DTS lari va o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich joriy etib borilmoqda.

Umumiy o‘rta ta'limning DTS (1999 yil 16 avgust) o‘quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Mehnat ta'limi bo‘yicha DTS da umumiy o‘rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo‘naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o‘quvchilarning mehnat ta'limi fanidan tayyorgarlik darajasini me'yorlari ifodalanadi.

Mehnat ta'limi o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo‘lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatida ko‘nikishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarni va tafakkurlarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanidir.

Umumiy o‘rta ta'lim maktabida mehnat fanini o‘qitishning maqsadi:

O‘quvchilarning aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari bilan tanishtirish.

Kasblar bilan tanishtirish

Dastlabki mehnat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish

Mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish

Mehnat va kasblarni qadrlash ularni ahamiyatini tushunishga o‘rgatish

Kasb tanlashga tayyorlash orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish

5-sinf uchun uzviy bog‘lanish zaminini yaratishdan iborat. Bular ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi.

Ta'limiy maqsad - o‘quvchilarning barkamol shaxslar bo‘lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslari texnologiyasini o‘rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg‘unlashtirish orqali ularning kasbga tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat.

Tarbiyaviy maqsad-O‘quvchilarning mehnat ko‘nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori aqloqni sifatlarini mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat.

Rivojlantiruvchi maqsad - mehnat ta'limi mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy badiiy estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam berishdan iborat.

Nazorat maqsad o‘quvchilarning dasturda belgilangan bilim, ko‘nikmalarni DTS ga binoan o‘zlashtirish holatini nazorat qilishdan iborat.

Mehnat ta'limi fani boshqa o‘quv fanlaridan o‘zining bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi.

Ushbu fanni o‘qitishda amaliy mazmun ustivorligi ishlab chiqarish bilan uzviy va chambarchas bog‘liqligi mujassam fan ekanligi (fanlar bilan aloqadorligi) o‘qitishda o‘g‘il va qiz bolalar mehnatini o‘ziga xosligi shahar va qishloq maktablarining moddiy texnika jihatdan ta'minlanish darajasiga bog‘liqligi shahar va qishloq maktablarining kasbiy mahoratini shakllanishi bilim, ko‘nikma va malakalarining o‘ziga xosligi 1-4 sinflardan mehnat ta'limi mashg‘ulotlari mazmuni va usullari o‘qituvchilar tomonidan insonlarning umumiy mehnat va kasb faoliyatlariga doir dastlabki mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga qaratilgan.

O‘quvchilar har bir mehnat harakatini ongli ravishda va shu harakatdan ko‘zlangan maqsadga muvofiq shaklda bajarishga o‘rgatib boriladi.

1-4 sinflarda mehnat ta'limi darsi haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi. 1 sinfda 33 soat, 2-4 sinflarda 34 soatdan jami 1-4 sinflarda 135 soat o‘qitiladi.

DTS ga asosan 1-4 sinflarda mehnat ta'limi o‘quv fani tarkibida quyidagi o‘quv kurslari kiritilgan. umumiy va badiiy mehnat umumiy texnologiya ( buyumlar tayyorlash tartibi tex.as) ushbu yo‘nalishning har biri yuzasidan quyidagi mavzular bo‘yicha nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Materialshunoslik asoslari asbobo-uskunalar haqida ma'lumot va ularni ishlatish usullari milliy hunarmandchilik kasblari bo‘yicha umumiy ma'lumotlar o‘zaro turdosh kasblar bo‘yicha dastlabki tayyorgarlik hamda ularni 5-sinfda o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda integratsiyalashtirib o‘qitish jarayonida amalga oshirib boradi.

Aslida kasbga yo‘naltirish ishlari 1-sinfdan boshlab barcha fanlar mazmuni uzviy bog‘liqligi asosida ularning kasblar turlari bilan tanishtirish hamda shaxsiy xislatlari kasblarnng ma'lum 5 ta turi ya'ni odam-tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgi tizimi, odam-badiiy obraz turlarining qaysi biriga mos ekanligini aniqlash hamda shu yo‘nalishda rivojlantirib borish jarayonining natijasi hisoblanadi.

1-4 sinfda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari mahalliy ehtiyojlar, imkoniyatlardan kelib chiqqan holda shuningdek istiqbolni belgilash idoralari tavsiyasi hamda Kasb xunar kollejlar va Akademik litseylar yo‘nalishini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Hozirgi sharoitni hisobga olgan holda ko‘proq maktablarda mehnat ta'limi mashg‘ulotlarining mazmuni asosan milliy hunarmandchilik kasblari yo‘nalishida olib boriladi.

Yirik sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan hududlardagi maktablarda mehnat ta'limi darslarida o‘quvchilarni shu sanoat sohasiga oid zamonaviy kasblarga yo‘nalgan imkoniyatlarini yaratish lozim.

O‘quvchilar mehnat ta'limini amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy va uslubiy vazifalarni hal qilishi lozim.

tashkiliy vazifalar: Mehnat ta'limi bo‘yicha nazariy amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv xonalari hamda unda maxsus ish joyi tashkil qilish, xavfsiz va qulay

mehnat sharoitini yaratish zarur. Xom ashyo materiallar, asboblar moslamalar mexanizmlar bilan ta'minlash.

Sanitariya-gigiena, mehnat xavfsizligi bo‘yicha belgilangan talablarni to‘liq bajarilishini ta'minlash va muntazam nazorat qilib borish. Mehnat korxonalari, tashkiotlar kasb-hunar kollejlari bilan uzviy aloqa o‘rnatish, rasmana hujjatlar, ish rejalari, o‘quv xonada ishlash qoidalari, ayrim mexanizmlarni elektr jihozlar bilan ishlashi, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalari. Sinf jurnallarini yuritish.

Uslubiy vazifalar- mashg‘ulotlarning yarim va bir yillik ish rejalarini tuzish, bunda mahalliy sharoit va ehtiyojlar va imkoniyatlarni hisobga olib, o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish mumkin bo‘lgan kasb turlarini tanlash, o‘g‘il va qiz bolalarning o‘zlariga xos mehnat mashg‘ulotlarini va kasb tanlashlarini amalga oshirish borish, mashg‘ulotlarda zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalar, didaktik vositalardan keng foydalanish mehnat ta'lim va tarbiyasining birligini ta'minlash. O‘quvchilarga turli kasblarga tegishli dastlabki ko‘nikma, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish.

Mehnat ta'limi jarayonida o‘quvchilarni aqliy va axloqiy jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh xususiyatlari shaxsiy psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olish o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish.

O‘quvchilarning bilim, o‘quv ko‘nikmalarini turli usullar bilan nazorat qilib borish, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma malmkalar quyidagi mezon bo‘yicha baholanadi: shakllangan nazariy bilimlar shakllangan ko‘nikma va malakalar milliy hunarmandchilik sohalari bo‘yicha shakllangan umumta'lim bilimlari milliy hunarmadnchilik kasblarining integrativ asoslarini o‘zlashtirish

Milliy hunarmandchilik kasblari asosi bo‘yicha shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar milliy hunarmandchilik kasblari bo‘yicha shakllangan mahorat milliy hunarmandchilik sohasida shakllangan ijodkorlik shu bilan birga asboblardan foydalanishni egallash moslamalar ijod qilish tayyorlangan buyumlar yoki mashg‘ulotlar sifati erishilgan natijalarni iqtisodiy ko‘rsatkilarini aniqlash asosida baholash o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar

(1-4 sinflar yakunida) mehnat ta'limi 69 bet № 7 mehnat qurollaridan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda foydalan olish qog‘ozning inson faoliyatidagi ahamiyatini bilish va u bilan ishlay olish mehnatga ijodiy va ongli yondosha olish texnik modellashtirishga oid ishlarni bajara olish qurilish materiallariga ishlov berish jarayonini bilish karton bilan ishlay olish o‘zining va o‘zgalarning mehnat faoliyatini baholay olish uy-ro‘zg‘or ishlarini bajara olish sodda konstruktorlik ishlarini bajarish mahalliy va tabiiy materiallardan foydalana olish gazlama, ip va tikuv asboblarini bilish elementar tikuv ishlarini bajara olish inosn mehnatini va faoliyatini turlarini anglash qishloq va shahar aholisi hayoti va mehnatini bilish

duradgorlikka oid sodda va yengil ishlarni bajara olish (o‘g‘il bolalar) oddiy bichish-tikish ishlarini bajara olish ( qiz bolalar).

Umumiy va badiiy mehnat kursining sinflar bo‘yicha taqsimlanishi

| № | Mavzular | Sinflar | | | | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | |
| 1 | Rasm, eskiz va jadvallar chizish | 9 | 9 | 4 | 4 | 26 |
| 2 | Dizayn asoslari | - | - | 8 | 8 | 16 |
| | | 8 | 8 | 5 | 5 | |
| 3 | Naqqoshlik asoslari | 17 | 17 | 17 | 17 | 26 |
| | Jami | | | | | 68 s |

| № | MAVZULAR | 1 | 2 | 3 | 4 | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Materiallar | 1 | 1 | 1 | 1 | 5 |
| 2 | Asbob- uskunalar | 2 | 2 | 1 | 1 | 6 |
| 3 | Amaliy ish usullari (operatsiyalar) | 2 | 2 | 1 | 1 | 6 |
| 4 | Amaliy mustaqil ishlar | 11 | 12 | 14 | 14 | 51 |
| | Jami | 17 | 17 | 17 | 17 | 68 |

1-sinf

Umumiy va badiiy mehnat-17 s

Rasm, eskizlar va jadvallar chizish- 9 s

Oddiy shakldagi tekis buyumlar tasviri – 3 s

Ayrim kasblar bo‘yicha tayyorlanadigan oddiy shakldagi buyumlar va mahsulotlar eskizlar chizish- 3 s

Turli kasblarda ishlatiladigan oddiy shakldagi asboblar rasmini chizish – 3 s

II. Naqqoshlik asoslari – 8 s

Buyumlarning bezaklarini o‘rganish – 2 s

Buyumlarning bezaklarini o‘ziga qarab chizish- 3 s

Geometrik shakllaridan naqshlar chizish- 3 s

III.Umumiy texnologiya asoslari- 17 s

Materiallar haqida dastlabki ma'lumotlar- 2 s

Asbob- uskunalar haqida ma'lumotlar – 2 s

Asosiy ish usullarini o‘rganish – 2 s

Aamaliy mustaqil ishlar – 10 s

1- sinf (300 bet)

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga

qo‘yiladigan talablar 8 ta

ayrim kasblarda ishlatiladigan asboblar nomlarini va nima maqsadda ishlatilishini bilish;

yog‘och materiallar olinadigan daraxtlarni tanish va ularning nomlarini bilish;

ayrim gazlama turlari, nomi, xususiyatlarini va ulardan tayyorlanadigan buyumlarni bilish;

Pazandalikda ishlatiladigan maxsulotlarning turlari va nomlari, nima maqsadda ishlatilishini bilish;

qandolatchilikda ishlatiladigan xom ashyolar va tayyorlanadigan maxsulotlarni bilish;

qurilish sohasida ishlatiladigan materiallar nomi, ayrim xususiyatlari va ishlatish sohalarini bilish;

qog‘oz va kartondan eng oddiy shakldagi buyumlarni qirqib tayyorlash, ularning rasmini chizish, bo‘yash hamda eng oddiy naqshlar bilan bezash;

Tugma qadash, eng oddiy choklarini tikish, gazlamalarni qirqishni bilish.

2- sinf

I.Umumiy va badiiy mehnat (17 soat)

Rasm, eskiz va jadvallar chizish- 9 s

Mavzular:

1. Bolalar yasagan o‘yinchoqlar va rasmlarni chizish va bo‘yash- 3 s

Ayrim kasblar mahsulotlari yoki tayyorlanadagina byumlari eskizini chizish va bo‘yash – 3 s

Kasblar uchun asboblar tasvirini chizish- 3 s

II. Naqqoshlik asoslari – 8 s

Dasturxon uchun naqsh chizish- 2 s

O‘yinchoq uychani tayyorlash uchun bezash uchun naqshlar chizish- 2 s

Daraxtlar va o‘simliklar barglaridan tasvirlar ishlash – 2 s

Turli buyumlar bezash uchun oddiy naqshlar chizish- 2 s

III.Umumiy texnologiya asoslari – 17 s

Materiallarning xususiyatlari – 1 s

Asbob-uskunalarning tuzilishi va ularni ishlatishda xavfsizlik qoidalari- 2s

Asosiy ish usullarini o‘zlashtirish mashqlari – 2 s

Amaliy mustkaqil ishlar – 12 s

2- sinf (306 bet)

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar- 10 ta

Ayrim kasblar mahsulotlari yoki tayyorlanadigan buyumlar eskizlarini chizish va oddiy bezaklarini ishlash;

Bir nechta kasblar sohasida ishlatiladigan asboblarning tuzilishini hamda ishlatilishini bilish;

Ayrim tabiiy materiallardan oddiy tasvirlar va naqshlar tuzish;

Yog‘och materiallarining qattiq-yumshoqligi, egilish-sinishga, suvga, zaxga va boshqa ta'sirlarda chidamliligini bilish;

Gazlamalarning haroratda, saqlanishda chidamliligi, turli gazlamalarning har xil ta'sirlar natijasida o‘zgarishlarini bilish;

Tuproq, loy, sopol va boshqa materiallarning asosiy xususiyatlarini bilish

Oziq-ovqat mahsulotlarining eng oddiy xususiyatlarini bilish;

qog‘oz, karton, gazlamalarni qirqish va kesish asboblaridan to‘g‘ri foydalanish;

ayrim ekinlarni o‘stirish va chorva mollari boqishning eng oddiy g‘oidalarini bilish.

3-sinf

I. Umumiy va badiiy mehnat (17 soat)

Rasm, eskiz va jadvallar chizish- 4 s

Mavzular

Mahsulotlar va buyumlar tayyorlash uchun xom ashyolar bilan tanishish hamda tayyorlash jarayonlarini o‘rganish maqsadida rasmlar chizish- 2 s

Alohida mehnat turlari uchun asboblar rasmini chizish- 1 s

Ayrim kasblar mahsulotlari uchun eskizlar chizish- 1 s

Dizayn asoslari – 8 s

Tekis geometrik shakllarni bir-biriga nisbatan katta-kichikligi va shaklan bo‘yicha o‘xshashlik qoidalari – 4s

Turli materiallardan gul yasash – 4 s

II.Naqqoshlik asoslari – 5 s

Sopol buyumlarning bezak naqlarini o‘ziga qarab ishlash – 1s

Kashtachilik naqlarini o‘ziga qarab chizish- 1s

qog‘oz va kartondan yasalgan o‘yinchoqlarni naqshlar bilan bezash – 1s

Aplekatsiya va mozaika ishlari – 2s

III.Umumiy texnologiya asoslari – 12 s

Milliy hunarmandchilik kasblariga oid materiallar bilan tanishtirish – 1s

Milliy hunarmandchilik kasblarida bajariladigan ish uslublari – 1 s

Milliy hunarmandchilik kasblariga tegishli iqtisodiyot huquq va ekologiya masalalari – 1s

Amaliy mustaqil ishlar – 14 s

O‘quvchilarga bilim va ko‘nikma, malakalariga qo‘yiladigan talablar (312 bet ) 11 ta

Har xil oddiy buyumlar va mahsulotlar tayyorlash jarayonlari ketma-ketligini hamda xom ashyolarni bilish. Ularni

4-sinf

I.Umumiy va badiiy mehnat (17 soat)

Rasm, eskiz va jadvallar chizish- 4 s

Mavzular

Yog‘ochdan buyumlar tayyorlash jarayonlarini ketma-ketligi haqida jadval, rasmlar va eskizlar chizish- 2 s

Oziq-ovqat tayyorlash jarayonlarining bosqichlari haqida texnologik jadvallar va ayrim oziq-ovqat mahsulotlari uchun eskizlar chizish- 2 s

Dizayn asoslari – 8 s

Turli shakllarning bir-biriga nisbatan o‘lchami, rangi va bezaklari bo‘yicha o‘xshashligi – 2 s

Turli materiallardan o‘yinchoqlar loyihalash – 4 s

Naqqoshlik asoslari – 5 s

Zargarlik buyumlaridagi naqshlarini o‘ziga qarab chizish – 1s

Gilamdo‘zlik naqshlarini o‘ziga qarab va ijodiy ravishda chizish- 2 s

Sandiqsozlik, beshiksozlik, kulolchilik va boshqa kasblarda naqqoshlik foydalanish usullari – 2 s

Umumiy texnologiya asoslari – 17 s

Turli kasblarda materiallar bilan ishlash – 1 s

Pazandalik va qandolatchilik – 1 s

Uy-ro‘zg‘or mehnati- 1 s

Mehnat ta'limida kompyuterdan foydalanish – 1 s

Amaliy mustaqil ishlar – 13 s

4- sinf O‘quvchilarga bilim va ko‘nikma, malakalariga qo‘yiladigan talablar (318 bet ) 10 ta

Mehnat ta'limidan testlar (boshlang‘ich sinflar)

1-sinflarda mehnat ta'limi darsi yil davomida necha soat o‘qitiladi?

A) 32 soat b) 33 soat s) 34 soat d) 36 soat

DTS ga asosan 1-4 sinflarda mehnat ta'limi fani necha soat o‘qitiladi?

A) 135 soat b) 136 soat s) 137 soat d) 138 soat

1-4 sinflardagi mehnat ta'limi fani qaysi o‘quv kurslarni o‘z ichiga oladi?

A) umumiy va badiiy mehnatni b) umumiy texnologiya asoslarini

v) umumiy kasb-korlikni asoslarini g) a va b javoblar to‘g‘ri

Badiiy mehnat bilan bog‘liq kasblarga qaysi kasblar kiradi?

A) o‘ymakorlik b) zargarlik v) kulolchilik g) hamma javoblar to‘g‘ri

Dizayn asoslari qaysi o‘quv kursining tarkibiga kiradi?

A) umumiy kasb-korlikni asoslarini

B) umumiy texnologiya asoslari

S) umumiy va badiiy mehnatni

D) to‘g‘ri javob yo‘q

Dizayn asoslari qaysi sinflarda va necha soatdan o‘qitiladi?

A) 1- 2 sinflarda 8 soatdan b) 3-4 sinflarda

S) 2-3 sinflarda 10 soatdan d) 1-4 sinflarda 6- soatdan

«Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini rivojlantirish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qachon qabul qilingan?

A) 1997 yil 21 yanvarda b) 1997 yil 14 fevralda

S) 1997 yil 31 martda d) 1997 yil 15 martda

Mehnat ta'limini tashkil qilishning asosiy formasi:

A) dars b) amaliy mashg‘ulot

S) nazariy bilim berish d) yo‘riqnoma berish

Test javoblari

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| B | A | D | D | S | B | S | A |

# II BOB. MEHNAT TA’LIMI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO’LLASH SHAKLLARI.

## II.1. Mehnat ta’limi jarayonida interfaol usullardan foydalanish shakllari.

Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o‘kuv hamda sinfdan tashqari ishlarning o‘zagi, maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo‘lidir. O‘quvchilar mehnat ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir.

Maktabning turmush bilan aloqasi kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda, sinfdan tashqari ishlarning o‘kuvchilar o‘zlarining mustakilliklari va tashabbuslarini namoyish eta oladigan, ularga jamiyat foydasi uchun tashkil etilgan mehnatning go‘zalligi va quvonchini, jamoaning kuchini his etishlariga yordam beradigan yangi shakl va usullarlari aniqlanmoqda.

O‘quvchilariing mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o‘kuvchilar ijtimoiy foydali mehnatinnng har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarda xilma-xil tarbiyaviy tadbirlarni kullash orqali amalga oshirilishi kerak.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta'lim - tarbiyaviy ishlarining ajralmas hismi bo‘lib, u bolaning har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, amalda qo‘llanishgaga yordam beruvchi muhim vositalardan biridir. Sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, mehnat ta'lim va tarbiyasi bolalarda fan texnika, sa'natning turli sohalariga qiziqishini o‘stirish masalalariii hal etishga yordam beradi.

Mehnat ta'limi bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar texnik mehnat darslarining davomi ko‘shimchasidir. O‘quv mashg‘ulotlari bilimlarga qiziqishini o‘zsgiradi, sinfdam tashqarn ish darsida bilimlarni kengrok kullash hamda cho‘qurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishdarsda berilgan materiallarni aynan takrorlamaslngi kerak, u sinfdagi ishdan o‘zining o‘yin, qiziqarli xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o‘quvchilarga ishnnng

o‘zlariga ko‘proq yoqqan, o‘zlarini ko‘proq qiziqtirgan to’rini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo‘ladi, bu yerda ular istalgan ish bilan shug‘ullanishilari, qo’yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo‘lgan vaqt va kuchini sarflashlari mumkin.

Sinfdan tashqari ishning formalar ko‘pdir:

Ommaviy ish - kechalar, ertaliklar, konkurslar, ekskursiyalar, ko‘rgazmalar.

Maktablarda boshlang‘ich sinflarda snnfdan tashqari ishlarni ertaliklar, ko‘rgazmalar tayyorlashni uyushtirish kabi ommoviy ish turlaridan keng foydalanib, konskurs va viktorinalarga kam e'tibor beriladi. Ommaviy ishning konkurs va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli va aynan bir vaqtda katta tarbiyaviy nmkoniyatlarga egadir. Chunki zehnli, tez javob topa bilish, o‘z fikri, bilim va ko‘nikmalarini safarbar eta bilish xuddi mana shu ish turlarida talab qilinadi.

Maktabning tarbiyaviy ishlarida ommoviy ishlar katta rol o‘ynaydi.Kechalarga, konkurslarga, viktorinalarga tayyorgarlik o‘quvchilarni xar tomonlama xarakat kilishga matnlarni yodlash, kostyumlar tayyorlash, jixozlash, bezash ishlarini amalga oshirishga majbur qiladi. Kechalar mavzulari shunday tanlanish kerakki, u o‘quvchilarda xar tomonlama qiziqish uygotsin, ularni o’ylashga, ixtiro kishiga majbur etsin va faqat mavjud bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanib kolmay, kecha mavzusining dasturiga muvofiq yangiliklarni xam o’zlashtira borsin. Ayniqsa kechalar ikki yondosh sinflar qo’shilganda juda qiziqarli va jonli o’tadi. Kecha mavzusi asosan maqol va matallardan olinadi, ammo kecha mavzusini "Mehnat va mehnat kishilarini sharaflaydigan" mehnatga aloqador bulishi xam mumkin. Mehnatga bag’ishlangan kechalarni har bir o‘quv choragi va yil oxirida o’tkazish maqsadga muvofiq bular edi. Kecha "Maktab mehnat darslarida nimalarni o’rganib oldingiz" mavzusi asosida o’tkazish mumkin. Kechaning maqsadi mehnat darslarida olingan ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, mehnatga muxabbat singdirishdir. Turli ishlarni bajarish, asboblarni to’gri ishlatish, darslarda foydalaniladigan materiallar va asboblar

bo’yicha bilimlarni tekshirishga bag’shilangan musobaqalar sinfda va sinflararo o’tkazilishi mumkin. Ish turlarini, tayyorlash texnologiyasini aynan o’zini qoldirib o’zgartirish kerak. Hamma topshiriqlarni bajargan o‘quvchilarni maxsus nishon bilan taqdirlash mumkin.To‘garak ishlarida ko‘rgazmalar, mavzuli albomlar, ko‘rgazmali qurollarni tashkil etish va bajarish muhim o’rin egallaydi.

Ko‘rgazmapar mavzusi xilma-xil bo‘lishi mumkin, masalan sinfda mehnat darslarida bajarilgan ishlar ko‘rgazmasi, uyda mustaqil ishlagan yoki to‘garaklarda ishlangan ishlar ko‘rgazmasi va shu kabilar. Ko‘rgazmani tomoshabinlar qanday idrok etiishari, ko‘rgazmani qanday tashkil etilganligi, qanday bezatilganligini, namunalarning joylashtirishiga bog’liqdir. Ko‘rgazma estetik didni tarbiyalaydi.

Boshlangich sinflarda to‘garak ishi quyi sinf o‘quvchilarini umumiy rivojlantirish, ayniqsa o‘qishning turmush bilan alokasi nuqtai nazaridan juda muhim va keraklidir. "Mohir qo‘llar", "Kugirchok teatri", "Yosh tabiatshunoslar" to‘garaklari ayniqsa katta axamiyatga ega bo’lib, to’garaklarda o‘g‘il qiz bolalar bir xil qiziqish bilan shugullana oladilar. Xar biri o’z qiziqishi, kuchi va imkoniyatlariga yarasha ish bilan shug’ullana oladilar.

To‘garaklarni tashkil etishdan oldin o‘qituvchi maktabdagi mavjud imkoniyatlarni chamalab chiqishi lozim. To‘garak uchun albatta alohida xona kerak bu xona stol-stullar, ma'lum asbob-moslamalar to‘plami, tayyor ishlarni qo’yish uchun shkaflar bilan jihozlangan bo’lishi kerak.

To‘garak ish rejasini to‘garak raxbari sinf raxbarlari bilan hamkorlikda bir yilga tuziladilar. Rejada to‘garak qaysi ish turi bilan shug’ullanishi va shu ish turlari bo’yicha qanday amaliy ishlar amalga oshirilishi qayd etiladi. Rejadagi ishlar oddiydan murakkabga o’tishini ta'minlash uchun murakkablik darajasiga ko’ra joylashtiriladi. Rejada o‘tkaziladigan ekskursiya ham ko‘rsatiladi.

To‘garak rejasini maktab rahbari tasdiklaydi. To‘garak mashg‘uloti haftada bir marta o’tkazilib, u 1,5 soatdan ortiq davom etmasligi kerak.

To‘garak mashguloti odatda yangi ish usullarini ko’rsatishdan boshlanib, to‘garak a'zolari bu harakatni takrorlaydilar, asosiy ishga esa ular bu ish usullarini

yaxshi egallab olganlaridan so‘ng kirishiladi. To‘garak a'zolari ishlarni bajarish jarayonija oddiy sxemalar. chizmalardan foydalanishga, materiallarga tartibli, tejamkorlik bilan munosabatda bo’lishga, asboblar hamda ish joyini toza va tartibli saqlashga albatta odatlantirish zarur.

To‘garakning xar bir a'zosi "O’zing bilim oldingmi – o’rtog’inga ham o’rgat" degan qoidani doimo yodida saqlashi kerak.

Individual mashg‘ulot - kolleksiyalar to‘plash, texnika bilan mustaqil shug‘ullanish, qishlok xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanish kiradi.

Boshlangich sinf o‘quvchilari ko’plab ijtimoiy foydali mehnatda qatnashadilar. Ular paxta terishda, sabzavot mevalarni yigishda, ipak qurti boqishda, maktabni, maktab xovlisini, kucha xiyobonlarni obodonlashtirishda qo‘llaridan kelgancha xarakat kiladilar. Ular dala shiyponlarida kutubxonalar tashkil etadilar, xavaskorlik konsertlarini beradilar, makulatura, temir-tersak to’playdilar, kichkintoylarni, nafaqaxurlarni otaliqqa oladilar. Bu tadbirlarni barchasi o‘quvchilar tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Biz ko‘p narsalarni o‘rganishni faqat dars vaqtida bajara olmaymiz, qilgan vaqtimizda ham ulgura olmaymiz. Shuning uchun sinfdan tashqari olib borgan ishlarimiz katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishlarda o‘kuvchilarning qiziqishlariga, qobiliyatlariga qarab turli xil ishlarni amalga oshirishimiz mumkin. Bajarilgan ishlarimizni ahamiyati haqida tushuntirilib borilsa, yaxshi natijalarga olib keladi.

Mehnat topshiriqlarini sinfdan tashqari ishlarda ko’llash o‘qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta to‘garak ishlarini doimo nazorat qilib, ularni chuqur va mastahkam bilimlar bilan qurollantirib, tanlagan ijodkorlikiga qiziqtirib va o‘kuv fanlari mazmunini mukkamalashtirib o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish kerak.

Sinfdan tashqari ishlarni samarali ravishda amalga oshirish, boshlang’ich sinflarda o’zlashtirgan bilim, malaka va ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi, ularning ijodiy qobiliyatlarini o’sgiradi hamda bidiiy estetik didini oshirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

O’z vaqtida, rejali, tartibli o’tkazilgan mashg’ulotlar o‘quvchilarning qiziqish va havaslarini oshiradi, ma'naviy, mafkuraviy qarashlarini boyitadi, xulosa qilib aytganda o‘quvchilarga boshlang‘ich sinfdanoq kelajakda to‘g‘ri ijodkorlik tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, kelajak-avlodning barkamol bo‘lishida, jamiyatimizning rivojlanishida katta ahamiyat ijodkorlik etadi.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi mazmunini milliy an'analar va qadriyatlarimiz, Respublika xududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog‘ini kengaytirish, zamon talablari darajasida isloh qilish kun tartibida turgan dolzarb masala

## II.2. To’garaklarda interfaol usullardan foydalanish.

Umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari darsdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning texnik ijodkorligi rivojlantirish faoliyati o‘zining shakli, mazmuniga ko‘ra xilma-xildir. Shunday bo‘lsa ham keyingi o‘n yillar ichida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo‘nalishlari aniqlandi:

1-4 sinflarda o‘quvchilar texnik ijodkorlik bilan bog‘liq mehnatga qiziqish va jamoa mehnatiga ishtiyoq uyg‘otish, ana shu yoshlar guruhidagi o‘quvchilarni yasama texnik o‘yinchoqlar, modellar va turli jiqozlarni konstruksiyalash bilan bog‘liq faol texnik o‘yinlar, musoboqalar va konkurslarga qatnashtirish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga va tajribachilik ishining eng oddiy shakllariga jalb etish, bolalarda texnika, sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi sohalaridagi texnik havaskorlik, ijodkorlik va tajribachilikka intilishni tarbiyalash.
O‘quvchilarni maktablar va maktabdan tashqari muassasalardagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi ijodkorliklariga yo‘naltirish.

O‘quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog‘onasida o‘qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o‘quvchini to‘lqinlantirgan ishni muhokama qiladi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fan va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag‘ishlangan kechalarni tayyorlash va hokazolar bo‘yicha individual topshiriqlar beradi. Shundan keyin, o‘qituvchi ana shu o‘quvchilarni to‘garakka birlashtiradi. Bunda ular jamoa topshiriqlarini ham bajara oladilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar to‘garaklarida Rahbar bilan o‘quvchilarning didaktik o‘zaro hamkorligi o‘yin faoliyati shaklida tashkil qilinadi. Konstruktorlik to‘garaklarida o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ishlashda bu hamkorlik vujudga kelgan amaliy vazi-falarni (masalan, texnika to‘garaklarida texnik vazifalarni bajarishda, qandaydir texnik qurilmani, model, maket, tajriba namunasini ishlab chiqish va tayyorlashda) bosqichma-bosqich hal qilish jarayonida tashkil etiladi.

## Zamonaviy pedagogikada interfaol usullardan ba'zilari:

- Ijodiy vazifalar
- Kichik guruhlarda ishlash
- O'yinlar (rolli o'yinlar, imitatsiya, ishchanlik o'yinlari va ta'limiy o'yinlar)
- Ijtimoiy resurslardan foydalanish (mutaxassislarni jalb etish, ekskursiya)
- Ijtimoiy proektlar va boshqa turdagi auditoriyadan tashqaridagi ta'limiy
- metodlar (tanlovlar, radio va OAV, filmlar, spektakllar, ko'rgazmalar, namoyishlar, qo'shiq va ertaklar)
- Jismoniy va intellektual mashqlar
- Yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interaktiv lektsiya, ko'rgazmali qurollar, video-audiomateriallar, «talaba o'qituvchi rolida», «har kim boshqaga o'rgata oladi», mozaika, savol-javoblar, Suqrot dialogi)
- Murakkab va bahsli muammo va masalalarni muhokama qilish







Hozirgi kunda maktablar va maktabdan tashqari muassasalar faoliyatida o‘quvchilar texnik ijodkorligi to‘garaklarining quyidagi turlari vujudga kelgan:

1. Tayyorlov texnika to‘garaklari (kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun). Ularda o‘quvchilar jonli va oson shaklda texnika elementlari hamda eng oddiy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar, qog‘oz, plastmassa, metall va boshqa materiallarga ishlov berish bo‘yicha olgan boshlang‘ich ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. O‘quvchilar texnik o‘yinchoqlar, mashina va mexanizmlarning sodda modellarini, eng oddiy avtomatik qurilmalar, o‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar, maktab hamda uy-ro‘zg‘or buyumlari va hokazolarni tayyorlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun tayyorlov texnika to‘garaklari orasida ko‘pincha boshlang‘ich texnik modellashtirish to‘garaklari, elektrlashtirilgan o‘yinchoqlar to‘garaklari, transport texnikasini boshlang‘ich modellashtirish to‘garaklari tashkil qilinmoqda.

2. Predmet (fan-texnika) to‘garaklari: fizika, fizika-texnika, ximiya, ximiya-texnologiya, agroximiya, astronomiya va boshqa to‘garaklar. Bunday to‘garaklar o‘quvchilarning maktab o‘quv rejasidagi turli predmetlar bo‘yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini mustaqkamlash, ta'lim xonalarini to‘ldirish uchun asbob-uskunalar yasash va shu asosda o‘quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish maqsadlarida tashkil qilinadi.

3. Sport-texnika to‘garaklari maktablarda, ko‘proq maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat ko‘rsatadi. Bular aviamodel, raketa-kosmik modellashtirish, avtomobil modelchiligi, kema modelchiligi, temir yo‘l modelchiligi, radio boshqarish, suv-motor va boshqa to‘garaklar.

Mazkur to‘garaklarda o‘quvchilar modellarni va ishlaydigan tex-nikani konstruksiyalash va tayyorlash bilan shug‘ullanadilar, keyin esa ana shu modellar bilan sportning texnik turlari bo‘yicha modelchi-sportchilarning musoboqalarida qatnashadilar.

O‘quvchilar sport-texnika to‘garaklarida tegishli texnika tarmo-g‘ining tarixi, uning xalq xo‘jaligida va mamlakatimiz mudofaasida qo‘llanishgai bilan, Vatanimizdagi havo yo‘llari transportlari samolyotlar, avtomobillar, suv yo‘llari

transporti, radio apparatlari va boshqa texnikalar bo‘yicha buyuk konstruktorlar texnik tafakko’rining xususiyatlari bilan tanishadilar.

Yuqoridagi to‘garaklardan tashqari metallchilar, duradgor konstruktorlar, texnolog ixtirochilar, shuningdek, elektrotexnika, radiotexnika, elektron avtomatika, texnika, kibernetika, rabotexnika, kichik o‘lchamli qishloq xo‘jalik texnikasini konstruksiyalash, texnikani jihozlash va o‘lchov texnikasi klublari keng tarqalgan.

O‘quvchilarning ana shu to‘garaklardagi faoliyati, eng avvalo, texnikani o‘rganish bilan, o‘rganilgan mashinalarda ishlashni osonlashtiradigan turli ish moslamalarini yaratish, mashinalardagi har xil tizimlarning ishlash prinsipi va tuzilishini tushunishga yordam beradigan ko‘rsatmali qo‘llanmalarni tayyorlash bilan bog‘liqdir.

Maktab texnika to‘garaklari tarmog‘ining rivojlanishi va shu to‘garaklarning yuksak saviyada ishlashi ko‘pincha maktablarda texnika yoki sport texnika, o‘quvchilar ilmiy jamiyatlarining klublari tashkil topishiga olib keladi, o‘quvchilarning mehnat birlashmalari ishlarning mexanizatsiyalashuvi darajasini oshiradi.

Yangi texnik yechimlarni izlash metodlarini o‘zlashtirishga juda qiziqadigan o‘quvchilar ko‘pincha mahalliy texnik ijodkorlik markaz-laridagi mashg‘ulotlarga qatnashadilar, maktabda ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining maktab tashkiloti, maktab konstruktorlik uyushmalari kabi uyushmalarining faoliyati rivoj topadi. Bu birlashmalar pedagoglar va muhandis texniklar jamoatchiligining amaliy yordami bilan o‘quvchilarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va qavaskorligini rivojlantirish uchun yaxshi hamda yuksak ijodkorlikiy saviyadagi sharoitni yarata oladi. Ularning ishlab chiqarish, ilmiy muassasalar va tashkilotlar, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining mahalla bilan mustaqkam aloqasini ta'minlaydi.

Bunday ishlarni tashkil qilish va o‘tkazishda mahalliy uyushmalarda hamda yosh texniklar markazlarida shug‘ullanayotgan to‘garak qatnashchilari o‘qituvchiga katta yordam berishlari mumkin. Olimlar va ishlab chiqarish ilg‘orlari

bilan uchrashuvlar, o‘quvchilarning ilmiy-texnik konferensiyalari, texnik ijodkorlik ko‘rgazmalari, olimpiada va konkurslar, sayoxatlar, ilmiy-ommabop ma'ruzalar, yosh ixtirochilarning anjumanlari, har yilgi fan, texnika va ishlab chiqarish haftaliklari mamlakatimizdagi maktablar va maktabdan tashqari muassasalarda an'anaviy tus olgan, o‘quvchilarni texnik ijodkorlikka ko‘proq jalb etadigan ommaviy tadbirlarning shakllaridir.

Ma'lumki, dars o‘quvchilarga tarbiya va ta'lim berishning asosiy shaklidir. Dars qanchalik jozibali, uning shakli va mazmuni qanchalik yorqin bo‘lsa, o‘quvchilar predmetga shunchalik qiziqadilar, ularda ko‘proq savollar tug‘iladi. Predmet bo‘yicha dars mazmunli o‘tilsa, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni ham sifatli o‘tish samaradorligini oshiradi.

Tajribali mehnat ta'limi o‘qituvchilarining fikricha, o‘quvchining qiziqishlari yo‘nalishida, uning o‘qishdan tashqari faoliyati mazmunida bolalar va o‘smirlar ijtimoiy tarbiyasining natijalari yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun bu faoliyatni tashkil etish imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, o‘quvchidagi qiziqish va qobiliyatni shunchalik barvaqt aniqlash, ularning rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatish, o‘quvchiga o‘z ishini, o‘zining kelajakdagi ijodkorlikini topishda yordam berish mumkin.

To‘garakdagi ishlar o‘quvchilarga biror ijodkorlikdagi mehnatning mazmunini, ommaviy ishchi ijodkorliklarining eng qiziqarli jihatlarini bilib olishlarida yordam berishi zarur. Shuning uchun maktabdagi to‘garaklarning faoliyatini belgilashda mahalliy ishlab chiqarishning yo‘nalishini hisobga olish kerak.

Rahbar to‘garak jamoasini uyushtirish bilan birga to‘garakda ijodiy ishlab chiqiladigan va tayyorlanadigan ob'ektlarni belgilaydi, to‘garak ishini moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyatlarini, shuningdek, bo‘lajak texnik qurilmaning murakkab detallarini tayyorlashda hamda maslaqatchilarni jalb qilishda amaliy yordam ko‘rsatish uchun baza, korxonaning imkoniyatlaridan foydalanish miqyosini aniqlaydi.

Mehnat ta'limi o‘qituvchisi boshqaradigan to‘garakdagi o‘quvchilar mehnatining ob'ektlarini belgilashda asosiy diqqat – e'tibor maktab ustaxonalarini ayrim texnik qurilmalar, texnologik uskunalar, mehnat birlashmalaridagi mehnatning kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlashga, maktab ustaxonalaridagi mavjud uskunalarni ta'mirlash va takomillashtirishda, o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishida yordam beradigan har xil ko‘rsatmali qo‘llanmalarni, elektrlashtirilgan stendlarni, bilishga doir o‘yinlarni ishlab chiqishga haratiladi.

O‘quvchilarning to‘garakdagi ish uchun ob'ektlar tanlashdan oldin o‘quvchilarning o‘zlarini tayyorlash, ularda kishilar uchun kerakli buyumlarni ishlab chiqish hamda yasashga qiziqish va ishtiyoq uyg‘otish kerak.

Ishning muvaffaqiyati o‘qituvchi, to‘garak rahbari to‘garak qat-nashchilari orasida vazifalarning taqsimlanishini qanchalik aniq tashkil etgani, ularning individual va yosh xususiyatlarini, maktab ustaxonalari sharoitida tavsiya qilingan ishni bajarishga amaliy tayyorlik darajasini hisobga olgani bilan ham belgilanadi. Boshlang‘ich sinflarda darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish jarayonida asasan mahalliy kablar bilan tanishtirish ko‘zda tutiladi .Davlat ta'lim standartida ham boshlang‘ich sinflarda darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish maqsadga muofiqligi ko‘zda tutilgan. Jumladan 5-ta ijodkorlik turi bo‘yicha ijodkorliklar bilin tanishtirishni ko‘zda tutiladi bular inson-tabiat, inson-texnika, inson-inson, inson-belgili tuzilishi, inson-badiiy obraz shuni nazarda tutish kerakki ijodkorliklar bilin tanishtirishda uning qiyin tomonlarini aytmaslik maqsadga muvofiq. Dasturda ko‘rsatilgan amaliy ishlarni har doim ham maktab to‘garaklari faoliyati jarayonida bajarib bo‘lmaydi. Bu juda ko‘p sabablarga, jumladan, ustaxonalarning moddiy texnik bazasiga, o‘qituvchining amaliy tayyorgarligiga ham bog‘liqdir. O‘qituvchi dasturda ko‘rsatilgan vaqtdan mavzular bo‘yicha ajratilgan vaqtlar nisbatini aniqlash uchun mo‘ljal sifatida foydalanishi mumkin.

Dasturlar maktab to‘garagi mashg‘ulotlarini haftada bir marta to‘garak ishining birinchi yili ikki akademik soatdan va ikkinchi yili uch akademik soatdan o‘tkazishni mo‘ljallab tuzilgan.

To‘garak rahbariga ish haqi to‘lash bilan bog‘liq masalalar qoidaga muvofiq maktab ma'muriyati va baza korxonaning kasaba uyushmasi tomonidan hal qilinadi. Ba'zan maktablardagi texnika to‘garaklari yosh texniklar markazining filiali sifatida tashkil etiladi. Bunday hollarda to‘garak rahbarining ish haqi maktab va tegishli yosh texniklar markazi jamoalarining hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomasi asosida belgilanadi.

To‘garak faoliyati doimo to‘garak rahbari tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan ish rejasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

To‘garak ishining rejasi to‘garakning namunaviy dasturi yoki to‘garak rahbari o‘qituvchining o‘zi tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan dastur asosida tuzilishi mumkin.

Ko‘pincha to‘garakning ish rejasi mashg‘ulotlar boshlanishidan ancha oldin, rahbar hali to‘garak qatnashchilari ro‘yxatini aniq bilmaydigan paytda tuziladi va tasdiqlanadi. Aslida esa to‘garakning yillik ish rejasi loyihasinigina oldindan tayyorlash, keyin to‘garak qatnashchi-larini ana shu loyiqa bilan tanishtirish, uni uzil-kesil ma'qullashni esa navbatdagi mashg‘ulotlarda, ya'ni o‘quvchilar o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini va o‘zlarini nimalar ko‘proq qiziqtirishini bilib olganlaridan so‘ng amalga oshirish to‘g‘riroqdir.

O‘quvchilarning faol ishtirokida tuzilgan reja eng to‘g‘ri bo‘ladi, chunki bunday reja har bir o‘quvchining ishiga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o‘z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘lga ega bo‘lishi, xalq xo‘ja-ligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham o‘sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradordigini oshirish to‘g‘risida»gi farmonida ko‘rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy

fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Darsdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning sama-radorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng za-monaviy va qulay yo‘nalishlarini topib joriy etishga bog‘liq.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, atrof muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hakozolar bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o‘zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni ijodkorlikiy tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakl-lanishga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan muqitdan himoya qilish muhimdir.

Ijodkorlikiy tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy ma'naviy tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy  qadriyatlarga asoslangan samarali tash-kiliy, pedagogik shakl va vositalarni  ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Hozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jihatdan ijodkorlikiy-tarbiyaviy ishlarni o‘smirlar orasida kuchaytirish talab etiladi. Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari (o‘qituvchilar, sinf Rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o‘quvchilarni ijodkorlikga yo‘naltirish asosida hayotga tayyorlashdek muhim vazifa turadi.

O‘quvchilarda ijodkorlikiy tarbiyani shakllantirishda kitob va kitobxonlik muhim ahamiyat ijodkorlik etadi. Bilim manbai bo‘lgan kitobni sevish, uni o‘qish va ko‘z qorachig‘idek saqlay bilish lozim. O‘qish uchun uni tanlay olish va o‘qish madaniyatini bilish kerak. Bu ishda ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

Ijodkorlikiy tarbiyani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo‘lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va oshkoralikni himoyalash  har bir kishining asosiy vazifasidir. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o‘quvchilar Respublika mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o‘zinikidek qabul qiladigan bo‘lsin. Ularning og‘irligini o‘z yelkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo‘lib ulg‘aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko‘zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalardagi tub o‘zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini tushunsin.

Iqtisodiy tarbiyaning umumiy maqsadi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijodkor shaxsni hayotiy faoliyat vositasidan unumli foydalangan holda uning iqtisodiy savodxonligini, iqtisodiy mada-niyatlilik darajasini oshirishdan iborat.

Shunga muvofiq shaxsning kamol topishi faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog‘liq nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko‘nikma, malakalar yig‘indisi, o‘rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir. Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bolalarning eng oddiy, shuningdek, ancha asosli iqtisodiy bilimlar, hayot me'yorlari va qoidalarini bilib olishlari, tushunchalarni kengaytirishlari hamda mustaqkamlashlari uchun ularga keng sharoit yaratib berishlarini taqozo etadi. Bunda uzluksiz iqtisodiy ta'lim tarbiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘nalishlarini ishlab chiqarishda mamlakatimizdagi barcha davlat boshharuv tashkilotlari qatnashishi ko‘zda tutiladi.

Hozirgi kun talablariga javob berish barobarida uzluksiz ta'limning yagona tizimi, umumta'lim tayyorgarligining uzluksiz ta'limdagi ahamiyati, shaxs barkamolligi, mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsata olishda uzluksiz ta'lim, turli faoliyatlardan vosita sifatida foydalanish, iqtisodiy munosabatlarga jalb etish kabi ilmiy harashlar tizimi shakllanadi.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishni vaqt bilan qat'iy chegaralash mumkin emas. Uning uzluksizligini ta'minlovchi, iqtisodga yo‘naltirilgan ta'lim-

tarbiya tadbirlari tizimidagi markaziy siymo - Jahon andozasiga mos keluvchi ijodkor shaxsdir. Shaxsning kamolotga intilishi ijodkorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy muhit, ehtiyoj ijodkor shaxsni yaratuvchi kuchdir. Eng ilg‘or fikrlar, mafkura, eng takomillashgan tafakkur faoliyat vositasida moddiylashganda, seziladigan narsa tusiga aylangandagina iqtisodiy tarbiyaning omiliga aylanadi. Iqtisodiy tarbiya bo‘yicha darsdan tashqari ishlar o‘quv jarayoni bilan tarkiban va mantiqan uyg‘unlashgan holda bo‘lishi kerak. To‘garak faoliyati, iqtisodiy bilim anjumanlari va baqs-munozaralari o‘quvchilarning yosh va aqliy xususiyatlariga muvofiq bo‘lishi, umumiy tarbiyaviy jarayonga mos kelishi zarur.

Bunda iqtisodiy tarbiyaning o‘quvchilar ijodkorlikiy shakllanishiga ta'sir ko‘rsatish umumiy mazmunining ajralmas, uzviy hismi ekanligini yodda tutish kerak. Belgilangan maqsadga qaratilgan tushuntirish ishlarini oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o‘rta ta'lim, oliy va o‘rta maxsus pedagogika o‘quv yurtlarida, maktabdan tashqari ta'lim maskanlarida, mahallalarda, xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish institutlari va boshqa muassasalarda olib borish, turli tadbirlar o‘tkazish ham muhim o‘rin tutadi.

Yillar davomida va turli bosqichlarda olib boriladigan o‘quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha tuziladi. Mashg‘ulot shakli, maqsadi, mazmuni, pedagogik o‘ziga xosligi, shuningdek, ish rejalari fan mantiqini hisobga olgan holda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko‘ra farqlanishi lozim.

O‘quvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi estetik qadriyatlarga yo‘naltirish foydalidir. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning, O‘zbekistonning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirish kerak. Bu borada asosiy manba sifatida badiiy estetik qadriyatlar, qadimiy san'at turlarini tanlash zarur. Milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, ayniqsa, Sharq miniatyura san'ati, qaykaltoroshlik, hunarmandchilik, musiqa va san'atning boshqa turlari (teatr, sirk va q.k.) xalqning o‘tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi; yashash joyi, kiyinishi, mehnat qurollari va hakozolar muhim o‘rin tutadi, milliy san'at tarixiga, etnografiyasiga, me'morchiligiga va an'anaviy san'at turlariga alohida e'tibor berish talab etiladi.

O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, sharq mutafakkirlarining dono fikr-muloqazalaridan, shuningdek, Jahon umuminsoniy qadriyatlaridan foydalanish ma'qul bo‘ladi.

Bu aniqlangan bilimlar tizimi, estetik tuyg‘ular, qiziqishlarni singdirish, o‘rganish, fikrlash, mulohaza etish, munosabat, qimmatli yo‘nalish, harashlar, baholar, g‘oyalar, faoliyat (ijodiy, estetik), mukammallik, bilimni oshirish va o‘z-o‘zini ijodkorlikiy tarbiyalashdan iboratdir.

Darsdan va maktabdan tashqari ishlarda estetik tarbiya mazmunini, birinchi navbatda, majmuiy, tizimli tatbiq etishga ko‘ra uch xil maqsad uyg‘unligi (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlanib boruvichi), psixologik va pedagogik jarayonlar mushtarakligiga, ta'lim jarayonida jamiyat talablarini e'tiborga olishga, yangicha bilimlarga amal qilish va hakozo qoidalar asosida tarkib topmog‘i kerak. Ular asosida o‘quvchi shaxsiyatiga nisbatan yo‘nalish belgilanadi.

Bu maqsadga erishish uchun o‘quvchilar bilan to‘garak, fakultativ, mashg‘ulotlarda san'atshunoslik, san'atning ayrim turlarini, Jahon va milliy madaniyatni o‘rganishning har xil shakllaridan foydalanish mumkin.

Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki darsdan va maktabdan tashqari ishlarda amalga oshirilayotgan va yana qayta tiklanayotgan turli dasturlarda shaxs shakllanishiga, ma'naviy kamolotiga, murakkab hayot chorrahalarida ma'naviy mas'uliyat bilan yashashga o‘rgatishni shakl-lantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti tarkib topayotgan bir kezda o‘quvchilarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda, albatta, ishlab chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning yangi-yangi omillarini, ularga tanish turlarini belgilab olish darkor. Bolalarda hunar va ijodkorlikga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish jarayonida ularning ijobiy hislatlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratish lozim. O‘quvchilarni quyi sinfdan ijodkorlikga yo‘naltirib, 9-sinfni tugatganlarida akademik litsey yoki ijodkorlik-hunar kollejlariga yo‘llanma berish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarni bozor sharoitiga o‘rgatishning o‘zi ularning halol va fidokorona mehnat tufayli foyda olish haqidagi amaliy bilimlarini boyitadi.

Bolalarni jamoa bo‘lib, hamkorlikdagi mehnat natijasida mahsulot soni va xizmat turlarini oshirish mumkinligiga ishontirish muhim hisoblanadi. Bolalarning qurilish maydonchalari, yordamchi yig‘im-terim brigadalari saflarida hunarmandchilik bilan shug‘ullanishlari, usta-shogird maktablariga qatnashib xalq amaliy san'atida, bemorlarga yordam ko‘rsatish va nafaqaxo‘rlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limlaridagi, qovlilarni va ko‘cha-ko‘ylarni tartibga keltirishdagi, sanoat korxonalarida, hisoblash markazlari, shifoxonalar va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ishlari alohida kullab-quvvatlab boriladi. Ular bu ishlarning barchasidan ma'naviy foyda topish malakasini oshirib boradilar zero, bozor munosabatlari bugungi kunda Jahonda tan olingan moddiy barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag‘batlan-tirib turadigan birdan-bir vositadir. Bu munosabatlarda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun qat'iy intizomga, texnik va iqtisodiy bilimga, malakali mutaxassislarga, ishni to‘g‘ri tashkil qilishga asoslaniladi. O‘quvchi bozor qarama-qarshiliklarini va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganib boradi.

Bugungi kunda mo‘qammal iqtisodiy tarbiyani takomillash-tirmasdan ish qilib bo‘lmaydi. Shu bois o‘qituvchi, sinf rahbari, maktabdan tashqari ta'lim muassasasi xodimlari nafaqat bilim berishlari, balki o‘quvchilarda iqtisodiy faoliyat malakasini hosil etish, bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlashga o‘rgatish lozim bo‘ladi. Bolalarga savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi yangi iqtisodiy termin va tushunchalarni o‘rgatish, ularni qanday kullash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ishga ijobiy yondashuvning rivoji, topqirlik, ixtirochilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayligina yuqori samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirilsa, o‘quvchilar iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonadi.

Bozorning axloqiy va huquqiy me'yorlari bu insonning axloq me'yorlarining o‘zginasidir. Bular-halollik, berilgan so‘zning ishonchli va qat'iyligi, batartiblik, ijrochilik, majburiy mehnatni tashkil qilish, kredit va

harzlarni qoplash, brokker (vositachi)lik ishlarini olib borish, xushmuomalalik, sherikka, iste'molchiga bo‘lgan hurmat va hakozolar. Bularning barchasi o‘quvchiga singdirilishi lozim.

Maktabda rivojlangan nazoratli bozor munosabatlarini tashkil qilish, bo‘lg‘usi tadbirkor va ishbilarmon kishilarni shakllantirish, uddaburon xo‘jalik yurituvchi, iqtisodiy fikr va mushoqadasi rivojlangan odamni tayyorlash imkonini beradi. Mehnat tarbiyasida bolalarni tizimli iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, iqtisodiy qonunlar va qarama-qarshiliklardan oqilona foydalana oladigan qilib tarbiyalash juda muhimdir.

Bu ishlarning hammasi samarali ijodkorlikga yo‘naltirish ishlarini ta'minlashga qaratilgan bo‘lib, ijodkorlik tanlagan o‘smirga yordam berish va uning mahoratini, iqtidorini namoyon etish uchun xizmat qiladi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni ijodkorlik-hunarga yo‘naltirishda iste'dodli va zukko bolalarni aniqlash va tarbiyalash muhim ahamiyat ijodkorlik etadi. Iste'dodning o‘z vaqtida namoyon bo‘lishi tarbiyaga va kullab-quvvatlashga bog‘liqdir. har qanday jamiyatga iste'dodli shaxslar zarur. Shu nuqtai nazardan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o‘qitish respublikaning bo‘lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning yagona manbaidir.

Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o‘quvchilar iste'dodini aniq tahlil etish, bolalarning o‘ziga xos psixo-logik jihatlari va fazilatlari hisobga olish darkor.

Turli yoshdagi iste'dodli o‘quvchilarni namoyon etishda hozirgi kunda, avvalo, maktab pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostik tajribalardan unumli foydalanishlari zarur. Bunda «Respublika Iste'dod Markazi» xodimlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Iste'dod markazi xodimlarining faoliyati tajribasidan foydalanish, ularning iste'dodni aniqlashga mo‘ljallangan psixologik tadbirlarini pedagogik tajribalar bilan ishlab chiqish lozim. Bu sohada «Ulug‘bek», «Oltin meros», «Iste'dod» jamg‘armalari bilan hamkorlikda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo‘lishiga qobiliyatlarni

aniq tahlil etish, bolaning o‘ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirishi imkonini yaratadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o‘quvchida mavjud bo‘lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o‘quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida o‘quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dodli va iqtidorli to‘garak a'zolari alohida rag‘batlantirildi, ularga mukammallik uchun sharoit yaratildi, ularning ijobiy qiziqishlari, rang-barangligini oshirish, turli ko‘rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish namunali amalga oshirildi.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa, Respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish va ularning ta'lim-tarbiyasini muntazam ravishda to‘g‘ri yo‘lga kuyish muhimdir.

Iste'dodli bolalarni respublikamiz mintahalarining hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy kamol toptirishda diagnostik uslubiyatlar, o‘quv rejalari va o‘quv-uslubiy, tarbiya va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash lozim. Shuningdek, iqtidorli bolalarni izlash, topish va tarbiyalash uchun zamonaviy moddiy-texnik hamda moliyaviy jihatdan to‘liq ta'minot zarur.

Iste'dodli bolalar salomatligini muhofaza qilish uchun ularni ruqiy zarbalardan asrash yo‘llarini aniqlash, ruqan yordam ko‘rsatish, qattiq qayajonlanish holatlarini o‘rganish ularning ijodiy qobiliyatlari rivoji uchun sharoit yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish darkor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirliklari xodimlari, yetakchi olimlar va mutaxassislar, ijodkorlar, amaliyotchi o‘qituvchilar, to‘garak rahbarlaridan iborat Respublika metodik kengashi tuzilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Kengash

ijodkorlik-hunarga yo‘naltirish ishlarini muvofiq-lashtirib, yo‘naltirib, tashkil qilib boradi.

Iste'dodli va iqtidorli bolalarning ijodkorlik-hunarga yo‘naltirish ishini tashkil qilishda turlicha o‘quv reja va dasturlariga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni ijodkorlik-hunarga yo‘naltirish uslubiyati, psixologik, pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratish maqsadida maxsus o‘quv dasturlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishda eng yaxshi pedagog va olimlarning faol ishtiroklari tavsiya etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy, ijodkorlikiy jihatdan tayyorgarlikdan o‘tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyatini amalga oshirish; akademik litseylarning o‘quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish, rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste'dodni ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish zarur.

Mazkur vazifalarni hal qilishda mahalla faoliyati muhim ahamiyatga ega. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mahallaning ustunligi shundaki, ko‘p yillar davomida birga yashagan kishilar yagona do‘st oilaga uyushganlar. Ular bir-birlarini, har bir oila va har bir bolani, ularning ota-onalarini va imkoniyatlarini yaxshi bilishadi. Mahallada an'anaviy tarbiyaning sharqona uslublari tarkib topgan. Masalan, hashar usuli bilan ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinib, og‘ir daqiqalarda bir-birlariga yordam berishadi. Bu esa so‘zsiz katta tarbiyaviy ahamiyatga ega va ahloqiylikni rivojlantirishga, jamiyatning boshlang‘ich negizi sifatida oilani mustaqkamlashga yordam beradi.

Ta'lim muassasalari negizida pedagogik, ijodkorlikiy, huquqiy, psi-xologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar o‘quvi» faoliyatini tashkil etish, bola tarbiyasi yaxshi yo‘lga kuyilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o‘rganib, tajribalarini ommalashtirishni yo‘lga kuyish muhim ahamiyatga ega.

Darsdan va maktabdan tashqari ijodkorlikiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi asosiy tadbirlarga e'tibor qaratish lozim bo‘ladi:

- ijodkorlikiy tarbiya jarayonini tashkil etishning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar majmuasi va maqsadli dasturlar ishlab chiqish;

- ijodkorlikiy tarbiyani zamon talablari asosida tashkil etadigan pedagog xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish;

- ijodkorlikiy tarbiya vazifalarni hal qilish uchun respublikaning barcha ilmiy kuchlari: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, oliy o‘quv yurtlari, fan, tarmoq, davlat va nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy-pedagog bo‘limlar faoliyatini birlashtirish zarur.

Darsdan va maktabdan tashqari ijodkorlikiy tarbiya mezonini amalga oshirishni davriy tahlil qilish rejali, ayrim ilmiy yoki pedagogik jamoalarning takliflari bo‘yicha o‘tkazilishi ham mumkin. Lekin har qanday vaziyatda tahlil qilishda ham ilmiy, ham amaliyotchi xodimlarning ishtirok etishi shart ekanligini unutmaslik kerak. Davriy ilmiy tahlil asosida tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilash va tuzatishga da'vat etilgan bo‘lsa, uning kundalik va doimiy tashkilotlari qatori amaliyotchi pedagoglarni ham keng jalb qilish lozim. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining uslubiy ishilariga alohida e'tibor berish kerak. Ular bolalar va o‘smirlarni tarbiyalash bilan shug‘ullanayotgan xodimlarning barcha toifalarini uslubiy yordam bilan ta'minlashlari, ushbu ishlarning ilg‘or tajribasi asosida to‘garaklar va uyushmalar, maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining dasturlarini ishlab chiqadilar hamda ularni takomillashtiradilar.

Umumiy o‘rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o‘z ishining ustasi bo‘lgan o‘qituvchi va to‘garak rahbariga muhtoj.

Shaxs sifatida bunday pedagog xodimlarning o‘zi har tomonlama rivojlangan, bilimdon, keng ko‘lamdagi umummadaniy va ijodkorlikkor ma'lumoti, ko‘nikma va malakasiga hamda o‘zligini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

# UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR

Mamlakatimizda modernizsiyalashgan ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish ta'lim tizimining barcha bo‘g‘inida o‘ziga xoslikni talab etmoqda.

Bolashg‘ich sinflar ta'lim jarayoni ta'limning keyingi bosqichlari uchun asos vazifasini o‘taydi. Bizga ma'lumki, boshlang‘ich sinflarning o‘qish, ona tili,matematika fanlariga katta urg‘u berib o‘qitilishi, tasviriy san'at. Mehnat, jismoniy tarbiya kabi o‘quv fanlariga esa e'tibor yetarli darajada qaratilmaydi.

Aqliy mehnat talab qilinadigan o‘quv fanlari orrasida ijodkorlikka yunaltirilgan mehnat darslariga e'tiborni qaratish bugungi davir talabi ekanligini barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilvri ham birdek qoul qilinayotganligi yo‘q.

Biz o‘z bitiruv  ishimizning ob'ekti sifatida Termiz shaxridagi 10, 16, 13-umum ta'lim maktablari boshlang‘ich sinflari “Mehnat” darslarini belgilangan vazifalarni bajarish nuqtaiy nazaridan o‘rgandik, tahlil qildik va shunday xulosaga keldik:

1.Biz kuzatgan maktablarning 1-2 sinflariga “mehnat” darslari mashg‘ulotlari deyarli o‘tilmas ekan.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quv rejasida “Mehnat” darslariga yetarlicha vaqt ajratilgani hamda o‘quvchilar ta'monidan “mehnat” darslariga munosabat yaxshi emas, ya'ni “ikkinchi darajali“ fan sifatida qaraladi.

3. O‘tilayotgan 3-4 sinflarga ham mehnat darslari ta'lab darajasida o‘qitilishi nazoratga olinmagan.

4. Boshlang‘ich sinf “mehnat” mashg‘ulotlarini o‘tayotgan o‘quvchilarning barchasi yetarli bilim, malaka, maxoratga ega emas.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning “mehnat”, “mohir qo‘llar” “Yosh texniklar” “duradgor” kabi to‘garaklarga jalb etilishi qoniqarsiz holatda ekanligini qayd etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Biz o‘z kuzatishlarimiz natijasida yuqoridagi fikrlarni qayd etib o‘tishni lozim deb topdik.

Vaholanki, boshlang‘ich ta'lim ta'limning boshqa keyingi bosqichlari uchun asos vazifasini o‘tashini barcha “ming bor ta'kidlagani holda” mehnat darslariga e'tiborsiz qaralishini kechirib bo‘lmaydigan hol deb baholash joizdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maktabga ilk kunlaridan boshlaboq ularning turli xil yo‘nalishdagi qobiliyatlari,qiziqishlari e'tiborga olib qaralishi maqsadga muvofiqdir. Kimda qog‘oz bilan ishlashga kimda tikish va bichishga, kimda rang-tasvirga, yana kimdadir kashtachilikka xullas bir sinfda 25-30 nafar turli xil yo‘nalishga moyilligi, qiziqishi mavjud “mitti insonlar” kelajakda mashhur modiler, tikuvchi, usta, duradgor, rassom, pazanda, kulol, haykaltarosh bo‘lmasligini bashorat qila olmaymizku.

Bundan tashqari tarbiya jarayonida “Oila, maktab, mahalla va jamoatchilik” konsepsiyasi hali mavjudligini unutmasligimiz lozimdir.

Chunki inson hayoti voqyeliklarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi qonuniyatlari bilan rivojlanadi. Agar kichik yoshdagi o‘quvchilarini qo‘l mehnatiga qiziqishi maktabga kelgan ilk kunlaridanoq e'tibor qilinmasa, kelajakka, “noshud”, “epsiz”, “loqayd” kishilarning ko‘payishiga zamin yaratilmaydi deb kim kafolat beradi.

Xulosalarimizning yakuni sifatida quyidagilarni taklif etmoqchimiz:

- Boshlang‘ich sinflarning “mehnat” darslarini o‘quv reja va dastur talabiga mos holda o‘qitilishini kechiktirmasdan yo‘lga qo‘yishimiz lozim.
- Boshlang‘ich sinflar mehnat darslari mashg‘ulotlari o‘qitayotgan o‘qituvchilar ham ilmiy, ham metodik jihatdan ushbu fanni o‘qitilishiga loyiq bo‘lishini maktab rahbariyati nazoratga olishi lozim.
- Agar bola maktabga kelgan ilk kunlaridanoq uning o‘ziga xos iqtidori, qobililiyatlari, ehtiyojlari inobatga olinmasa, maktab uning nazarida faqat “o‘qish va yozishni o‘rgatadigan” maskan bo‘lib qoladi. Kichik o‘quvchining barmoqchalaridagi sezgilar o‘z vaqtida tarbiyalanmasa uning ichki iqtidor tuyg‘usi kurtakligiga qolib ketadi.

Buni esa mehnat darsi va sinfdan tashqari to‘garaklar yuzaga chiqaradi.

- Maktab partasiga kelgan har bir bola oliy ma'lumotli shaxsga aylanmasligi hammaga ma'lum. Agar mehnat darslari o‘z zrnida va o‘z vaqtida samarali tashkil etilsa, kelajakda kasb-hunar egallashga moyilligi qobiliyati ustun bo‘lgan o‘ziga xos iqtidor egalari o‘z vaqtida aniqlanadi va kelajakda yaxshi kasb egasi bo‘lishiga zamin yaratiladi.

# ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim tog’risidagi” Qonuni. – “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.- T.:“O‘zbekiston”,2009.- 40 b.
4. Umumiy o‘rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o‘quv dasturi. 1999 yil 7-maxsus son
5. Karimov I.A.O‘zbekiston buyuk kelajak sari.-T.:O‘zbekiston.1998. - 686 b.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: O‘zbekiston. 1999.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaqri.-T.:Xalq merosi.1993. - 224 b.
8. Abu Rayqon Beruniy.100 qikmat (ibratli so‘zlar). - T.: Fan. 1993.-24.
9. Andrianov P.N. Maktab o‘quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish g‘ g‘ O‘quvchilarning texnik ijodkorligi. Tuzuvchi P.N.Andrianov. - T.:O‘qituvchi. 1989-128 b.
10. Almetov N.Sh. O‘quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish . Chimkent. 1993.-89b.
11. Amaliy psixologning ish kitobi. g‘g‘ U.A.Yo‘ldoshev, M.Po‘latova, Z.Koraev, I.Aripov. Navoiy. 2000. - M.: 1987. - 18 s.
12. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o‘rgatishning milliy-an'anaviy asoslari-(metodik tavsiyanoma). - T.: R.M. 1999. - 20 b.
13. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san'ati.- T.: Mehnat. 2001. - 384 b.
14. Vorobyov A.I. Mehnat ta'limi va ijodkorlik tanlashga yo‘naltirish metodikasi. - T.: O‘qituvchi. 1980. - 208 b.
15. Davlatov K.D., Chichkov V.A. O‘quvchilarni ijodkorlik tanlashga yo‘naltirish. - T.: O‘qituvchi. 1978. - 144 b.
16. Magzumov P.T., Ruzmetov F. Formirovanie u uchaqixsya potrebnosti v trudovoy deyatelnosti. 1991. -84s.

17. Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi.
- T.: O‘qituvchi. 1986. - 248 b.
18. Mavlonova R. Mehnat 3-sinf o‘quvchilari uchun darslik.
- T.: Mehnat. 1993. - 128 b.
19. Mavlonova R. Mehnat. 4-sinf o‘quvchilari uchun darslik .
- T.: Mehnat. 1995. - 160 b.
20. Mazur V.A., Davidova L.G. Milliy hunarmanchilikka o‘qitish jarayoni va uni tashkil qilish (metodik tavsiyalar, ruschadan B. Raximjonov tarj.)
- T.: NIIPO. 1996. -18 s.
21. Maktabdan tashqari ta'limga qo’yiladigan davlat talablari g‘ g‘ O‘quvchi ma'naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar J.Fozilov, V.Sultonov, h .Saidov. T.: Ma'rifat - Madadkor. 2000.-135-149 b.
22. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). (Mas'ul muharrir: M.M.Xayrullaev).
-T.:Xalq merosi nashr . 1999.- -400 b.
23. Mehnat ta'limi metodikasi (D.A.Txorjevskiy taqriri ostida).
T.: O‘qituvchi. 1987.- 80b.
24. Mehnat ta'limidan umumiy o‘rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. Ta'lim taraqqiyoti. IV maxsus son. 1999.
25. Mehnat ta'limidan umumiy o‘rta ta'lim maktablari uchun dastur.
Dastur. Ta'lim taraqqiyoti. IV maxsus son. 1999.
26. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.
- T.: O‘zbekiston. 2001. - 80b.
27. Pedagogika. g‘A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida.
–T.: O‘qituvchi. 1996. - 200 b.
28. Popov G.X. O‘quvchining shaxsiy ishini tashkil etish.
- T.: O‘qituvchi. 1992. - 168 b.
29. Razumovskiy V.G. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish.
- T.: O‘qituvchi. 1978. 285 b.

30. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi g‘g‘ O‘quvchi ma'naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar J.Fozilov, V.Sultonov, Saidov. T.: Ma'rifat-Madadkor. 2000 y. 101-135 b.
31. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati. g‘g‘ J.Xalq ta'limi .-1999.-№ 1.-97-102 b.
32. Sayidaxmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qullash namunalari. T.: Yangi asr avlodi.2001.- 40 b.
33. Tolipov O‘. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar. g‘g‘ J.Xalq ta'limi. № 2-3. 1999. 63-67 b.

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

34. http://www.bilimdon.uz
35. http://www.ziyonet.uz
36. http://www.edu.uz
37. http://www.local.uz
38. http://www.fikr.uz
39. http://www.pedagog.uz

# MUNDARIJA


Kirish……………………………………………………………..3-6

I-BOB. Boshlang'ch ta'limda interfaol usullarni qo'llashning ilmiy-amaliy asosi.

I.1. Interfaol usullar haqida tushuncha. ……………………………..7-18

I.2. Boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida interfaol usullarni qo'llash imkoniyatlari……………………………………………19-28

II-BOB. Mehnat ta'limi darslarida interfaol metodlarni qo'llash shakllari.

II.1. Mehnat ta'limi jarayonida interfaol usullardan foydalanish shakllari……………………………………………………….29-33

II.2 To'garaklarda interfaol usullardan foydalanish………………..33-48

Umumiy xulosa va tavsiyalar…………………………………..49-51

Foydalanilgan adabiyotlar………………………………………52-54